

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

MAVZU: O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA
ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR BILAN BOG'LIQ ZAMONAVIY
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

S.N.Jo'rayeva
t.f.d., dotsent v.b.

Bajardi:

Sh.U. Sheripbayeva
“Tarix” (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishi kunduzgi bo‘lim 4 kurs talabasi

Toshkent - 2024

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. SURXONDARYO VA QASHQADARYO – YIRIK ARXEOLOGIK MAKON.....	7
1.1. O‘zbekistonning janubiy vohalari arxeologik obyektlari salmog‘i...	7
1.2. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryoda turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari.....	17
1.3. Janubiy vohalarda tashkil etilgan kompleks ekspedisiyalar hamda uning ilmiy natijalarining zamonaviy turizm rivojidagi ahamiyati.....	26
II BOB. O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	38
2.1. Termiz arxeologiya muzeyi va zamonaviy turizm.....	38
2.2. Janubiy vohalarda arxeologik parklarni tashkil etish istiqbollari.....	49
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61
ILOVALAR.....	65

KIRISH

Bitiruv malakaviy mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. O'zbekiston xalqi milliy istiqloлга erishganidan so'ng, Vatanimiz hayotining barcha jabhalarida yangilanish va poklanish jarayoni yuz berdi. Tarixiy, milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, ko'p ming yillik tariximiz, madaniy qadriyatlarimiz hamda ma'naviy merosimiz haqqoniy tarzda o'rganilib, o'z o'rnini topib bermoqda. O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgandan keyin tariximizni, ayniqsa, o'ta soxtalashtirib talqin etilgan sovet davri tarixini, xususan, arxeologik tadqiqotlar tarixini mafkuraviy qarashlardan xoli tarzda o'rganish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Jahon turizm tashkilotiga a'zo bo'lgach, dunyo sayyohlari mamlakatimizni kashf etib, intila boshladi. So'nggi 30 yil ichida sayyohlik sohasining yo'lga qo'yilishi, shaharlarimizning xalqaro tashkilotlar tomonidan turizm, madaniy poytaxtlar deb e'lon qilinishi va ularning tarixiy ahamiyati hamda tizimdagi yutuq va muammolarni o'rganish, tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston arxeologik obyektlari bilan arxeologik turizm sayyohlarini o'ziga jalb etmoqda. Xususan, janubiy vohalarning muhim obyekti bo'lgan Sopolli madaniyati arxeologik jihatdan eng yaxshi o'rganilgan madaniyatlar qatoriga kiradi. U Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining mahalliy varianti bo'lib, Janubiy Afg'onistondagi Dashli, Janubiy Turkmaniston hududida tarqalgan Nomozgoh madaniyati bilan yagona tarixiy madaniy birlikda bo'lgan va arxeologiya fanida - Oks sivilizatsiyasi, Turon sivilizatsiyasi èki - Baqtriya-Marg'ièna arxeologik majmuasi (keyingi o'rinlarda-BMAK) kabi umumiy nomlar bilan atalmoqda. Shu nuqtai nazaradan Surxondaryo vohasi Baqtriya, Kushon kabi tarixiy davlatlar, Oltinsoy, Sangardak, Bobotog' kabi go'zal tabiati jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri ekanligi, bu hududlarda qadim zamonlardan boshlab yuksak taraqqiyot mavjud bo'lgan¹.

¹ Мирзиёев Ш.М. Окқўнгил, ориятли ва меҳнаткаш инсонлар юрти (Сурхондарё вилояти) // Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 273-302.

Bitiruv malaviy ishining davriy chegarasi. Ishning davriy chegarasi etib mustaqillik yillari (1991-2023) ya'ni arxeologik obyektlarni ochish va ularni arxeologik park va turizm obyektlariga aylantirish davri etib belgilandi.

Bitiruv malaviy ishining obyekti va predmeti. O'zbekistonning janubiy hududlarida arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq zamonaviy turizmni rivojlantirish jarayonlari etib belgilab olindi. Bitiruv malaviy ishining predmeti etib O'zbekistonning janubiy hududlarida arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq zamonaviy turizmni rivojlantirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari va sodir bo'lgan o'zgarishlar tashkil etadi.

Bitiruv malaviy ishining maqsadi va vazifalari. O'zbekistonning janubiy hududlarida arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq zamonaviy turizmni rivojlantirish jarayonlarini tarixiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari orqali ochib berishdan iborat. Mazkur ishning asosiy vazifasi sifatida quydagilar belgilab olindi:

- O'zbekistonning janubiy vohalari arxeologik obyektlari salmog'ini statistic materiallar va ilmiy adabiyotlar orqali ko'rsatib berish;
- Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryoda turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil etish;
- Janubiy vohalarda tashkil etilgan kompleks ekspedisiyalar hamda uning ilmiy natijalarining zamonaviy turizm rivojidagi ahamiyatini ochib berish;
- Termiz arxeologiya muzeyi va uning zamonaviy turizmga tutgan o'rnini yoritib berish;
- Janubiy vohalarda arxeologik parklarni tashkil etish istiqbollari haqida umumiy xulosalar berishdan iborat.

Bitiruv malaviy ishining ilmiy yangiligi. O'zbekistonning janubiy vohalari arxeologiya obyektlari eng ko'p o'rganilgan hudud ekanligi uzoq yillar davomida amalga oshirilgan ilmiy ekspedisiyalar, arxeologik, san'atshunoslik, arxitektura, topografik, toponomik kompleks tadqiqotlar, ilmiy nashrlar salmog'i, qadimshunos olimlarning O'zbekistondagi tadqiqotlari geografiyasi orqali ko'rsatildi.

Yuz yildan ortiq vaqt mobaynida O‘zbekistonning janubiy hududlarida davom etgan mahalliy va xorijiy arxeologik ekspeditsiyalarning tadqiqot davri, ochgan obyektlari, otryad rahbari va ularning a‘zolari tasniflab berildi.

Termiz arxeologiya muzeyi O‘zbekistondagi muzeylar orasida tarixiy artefaktlar va ashyolarning sonining ko‘pligi, yuqori ilmiy qiymati, asl eksponatlarning ko‘pligi, antik davrga oid arxeologik buyumlarning boyligi bilan ajralib turishi ko‘rsatildi.

Arxeologik yodgorliklar bilan bog‘liq zamonaviy turizmni tashkil etishda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari islomdan oldingi davr dinlari bilan bog‘liq obyektlarni o‘zida yaxshi saqlagani, ilk yozuv, ilk rassomchilik va ilk insoniyat izlari topilgan hududlardan biri bo‘lgani ichun munosib hudud ekanligi asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida Janubiy O‘zbekistonning qadimgi davr arxeologiyasi bo‘yicha quyida keltirilgan olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar: Surxondaryo viloyati (shimoliy Baqtriya) A.Asqarov², L.I.Albaum³, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev, Z.A.Hakimov, V.M.Masson, G.A.Pugachenkova⁴, Sh.R.Pidayev⁵, A.Abdullayev. Birgina Sopolli yodgorliklaridan topilgan sopol idishlarning bir necha tip, variantlari va ularning vazifalarini Askarov (1973 y), Abdullaev (1983 y), Shirinov (1993 y), Raxmanov (1987 y), Ionesov (1990 y), Shirinovlar (2002 y) tadqiq etgan.

XXI asrning boshlaridan hududlarini o‘rganishning yangi bosqichi boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanish yo‘lidan borishi, chet davlatlar bilan hamkorlikning kuchayishi va ilm-fan sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlar

² Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. 172 с; Аскарлов А., Абдуллаева Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. 120 с; Аскарлов А. Энг кадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. 24 б; Аскарлов А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2023. 360 б.

³ Альбаум Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства правобережного Тохаристана. – Ташкент: Академии наук, 1960. 228 с.

⁴ Пугаченкова Г.А. Халчаян (к проблеме художественной культуры Северной Бактрии). – Ташкент: Наука, 1966. 290 с; Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаяна. – Москва: Искусство, 1971. 207 с; Пугаченкова Г.А. Из истории античной культуры Узбекистана. Сборник статей. –Ташкент: Гафур Гулям, 1973. 138 с. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Дальверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1978. 240 с.

⁵ Ртвеладзе Э.В., Пидаяев Ш.Р. Каталог древних монет Южного Узбекистана. – Тошкент: Фан, 1981. 121 с; Пидаяев Ш. тангалар – давр кўзгуси. – Тошкент: Фан, 1984. 23 б; Пидаяев Ш. Сирли кушонлар салтанати. – Тошкент: Фан, 1990. 37 б; Пидаяев Ш. Қадимий Термиз. – Тошкент: Фан, 2001. 32 б.

natijasida bu davrda arxeologiya sohasida keskin o'zgarishlar ko'zga tashlangan. GIS texnologiyasi, Radar – GPR yordamida ko'plab yangi arxeologik ob'ektlar qayd qilingan. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida 200 dan ortiq yodgorliklar qayd qilingan. Bu davrda shimoliy Baqtriyada E.V.Rtveladze, L.M.Sverchkov, V.V.Mokroborodov, T.Shirinov, Sh.Shaydullayev⁶, T.Annayev, J.Annayev, N.D.Dvurechenskaya, N.A.Avanesova, I.R.Pichikyan, T.K.Mkrlichev, S.B.Bolelov.

Janubiy O'zbekiston yodgorliklari bo'yicha dissertatsion tadqiqotlarni bajargan Sh.B.Shaydullayev, S.N.Djurayevalar⁷ning ishlari diqqatga sazovor.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning favsifi:

Tadqiqot mavzusini ochib berishda taqqoslash, tarixiy, qiyosiy, mantiqiy yondashuv, sotsiologiya va antropologiya (eksperiment, kuzatish, son va sifat analizi, sintez) hamda og'zaki tarix metodi (intervyu, anketa, so'rovnoma) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi arxeologik yodgorliklar. ularning ilm fan, madaniyat rivojida tutgan o'rni, arxeologiya, antropologiya tarixnavislik va madaniyat tarixida tutgan o'rini takomillashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda qadimgi davr tarixini o'rganishga mo'ljallangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishida hamda ziyorat turizm yo'nalishlari bo'yicha maxsus kurs, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishinining tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonning janubiy hududlarida arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq zamonaviy turizmni

⁶ Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 75 б; Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Оқс цивилизацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2015. 176 б.

⁷ Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. 350 б; Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. 249 б.

rivojlantirish jarayonlari mavzusidagi ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, 60 bet, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar qismidan iborat.

Mazkur bitiruv malakavi ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL- 662205481 sonli "Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning "i-turism" platformasini ishlab chiqish" mavzusidagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrgacha mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

I BOB. SURXONDARYO VA QASHQADARYO – YIRIK ARXEOLOGIK MAKON

1.1. O‘zbekistonning janubiy vohalari arxeologik obyektlari salmog‘i

Respublikamizda yetti mingdan ortiq yodgorliklar bo'lib, shu jumladan, 2500 ta arxitektura yodgorliklari, 2700 dan ziyod arxeologiya va mingdan ortiq mahobatli san'at yodgorliklari davlat himoyasiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi YuNESKO tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'ldi. Xivadagi Ichanqal'a qo'riqxonasida (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabz shahridagi Temur va temuriylar davri me'moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro Jahon Madaniy Merosi Qo'mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklarni ro'yxatga olish haqidagi arizalar taqdim etilgan. Oq Ostona bobo, Arab ota, Ishratxona, Mirsaid Bahrom maqbaralari, Bahouddin, Chor Bakr, Shayx Muxtor Valiy, al-Hakim at-Termiziy me'moriy majmualari, shuningdek, Raboti Malik, Jarqo'rg'on va Vobkent minoralari, Qirq qiz saroyi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi me'moriy yodgorliklardagi noyob san'at namunalarini qayta tiklash va konservatsiya qilish ishlari bilan munatazam ravishda shug'ullanib kelmoqda. Boshqarma ilmiy-tadqiqot ishlar asosida ayrim yodgorliklarni konservatsiyalash va tiklashdan butun boshli me'moriy majmua ham tarixan shakllangan qadimgi shahar markazlarini tiklashga o'tildi.

Ushbu tadbirlar natijasida respublikamizdagi, shu jumladan, Surxon vohasidagi al-Hakim at-Termiziy me'moriy majmua, Sulton Saodat majmui, Kokildor ota xonaqosi, Qirq qiz kabi yodgorliklar va yodgorlik majmualari saqlab qolindi. Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan 2001-2002-yillarda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Eski Termizdagi al-Hakim

at-Termiziy, Termiz tumanidagi Qirq qiz, Sulton Saodat, Kokildor ota ziyoratgohlari qaytadan ta'mirlandi⁸.

Qumqo'rg'on tumanidagi Xoja Samandar at-Termiziy ziyoratgohi Qopto'qay qishlog'idagi daryo bo'yida bo'lib, daryo yaqinlashib qolgach, suyaklari yuqoriroqqa ko'chirilgan. Dastlab qabr loy g'ishtdan qurilgan, 1993 yilda qabr pishiq g'isht bilan ta'mirlangan. Oltinsoy tumani Kichik Vaxshivor qishlog'idagi Mavloni Zohid ziyoratgohida maqbara yo'q, qabr ochiq turibdi.

Oltinsoy tumani Katta Vaxshivor qishlog'idagi So'fi Olloyor ziyoratgohidagi qabr ustiga maqbara qurilmagan. So'fi Olloyor ziyoratgohini XIX asrda Mullo Fayzullo Oxund ta'mirlagan. XX asr boshlarida Qo'qon eshon degan kishi ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan. Qo'qon eshonning asl ismi Saidxo'ja bo'lib, inqilob tufayli Vaxshivorga badarg'a qilingan. Masjid 1961 yilda yana qaytadan ta'mirlangan.

O'zbekistonning janubiy vohalari hisoblangan Surxondaryo va Qashqadaryo hududlari o'zbek davlatchiligining 3000 yillik tarixini o'zida jamlab, boy tarixiy, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan arxeologik qo'riqxona, etnogafik makon, ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

Hozirgi kunda Qashqadaryoda umumiy 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylardir. Birgina Surxondaryoda 561 ta madaniy merosga oid tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning yosh davri paleolit bosqichidan, to XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ulardan 44 tasi arxeologik, 36 tasi arxitektura va muqaddas qadamjolar, 39 tasi monumental va san'at, 42 tasi diqqatga sazovor turistik joylarni tashkil etadi⁹.

Dastlabki shahar Qashqadaryo vohasida "Naxshab" (suv obod qilgan, suv naqsh bergan manzil) nomi bilan miloddan avvalgi 7-asrda Yerqo'rg'on o'rnida vujudga kelib, uning atrofi qal'a devori bilan o'rab olingan (ushbu qal'a

⁸ Джураева С.Н.Сурхондарёдаги муқаддас зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг аҳоли диний-маънавий ҳаётидаги ўрни: тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2009. – Б.123-124.

⁹ Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – Б.28.

devorlarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan 1999 yilda o'rganilgan). Shaharning yana bir nomi Novtak-Navtaka-yangi bino deb ham talqin qilinadi. Miloddan avvalgi 6-asrda shahar kengayib, ichki devor bilan o'ralib (hozirgacha saqlangan), maydoni 35 ni tashkil etgan. Aleksandr Makedoniyalik bosqini davrida shahar vayron qilingan¹⁰. Shundan keyin uning vohadagi etakchi shahar sifatidagi maqomi pasayib borgan. Miloddan avvalgi III-II-asrlarda shahar tashqi qal'a devori bilan o'ralgan (maydoni 150 ga bo'lgan). II-I-asrlarda (hozirgi temir yo'l stansiyasi hududida) yangi harbiy-siyosiy markaz maqomini olgan Zakhoki Moron qal'asi bunyod etildi. Qashqadaryo vohasida miloddan avvalgi asrlarda vujudga kelgan, yoshi jahonning eng qadimgi manzillari bilan bo'ylashadigan shaharlar bor. Shahrisabz va Qarshi ana shunday shaharlardandir. Shahrisabzva Qarshining 2700 yillik yubileylari nishonlanishi va ularning ulug' yoshi jahon miqyosida tan olinib, hukumatimiz qaroriga muvofiq bayram sifatida tantana qilingani fikrimizning yorqin isbotidir. Qarshi vohasi markazining tarixi Bobil (Iroq), Aleksandriya (Misr), Erevan (Armaniston), Taksila (Pokiston) kabi qadimgi shaharlar rivojiga o'xshashdir. Chunonchi, VI asrda Turk hoqonligi va Eron Sosoniylari tomonidan Eftalitlar imperiyasiga qarshi olib borilgan janglarda Yerqo'rg'on yonib, vayronaga aylangan¹¹. Shundan so'ng, Qarshi vohasi poytaxti Erqo'rg'onning Janubiy-G'arb tomonidagi Qashqadaryoning Janubiy sohili bo'yida, hozirgi Shulluktepa o'rnida qad ko'taradi. U tarixda Naxshab (arabcha -Nasaf) nomi bilan ma'lum va mashhur.

Qashqadaryoning muhim yodgorliklaridan biri Shulluktepadir. Shulluktepaning eng baland joyi uning ikki pog'onali ulkan arki bo'lib, maydoni 150x80 m va balandligi 28 m. Arkning shimoli-g'arbiy tomonida uning keskin ko'tarilgan qismi mavjud, u ham o'ziga xos tepalik shaklida bo'lib, arkning asosiy qismidan 13-14 m baland. Arkni hamma tomondan deyarli aylana shaklidagi shahriston o'rab turadi, shahriston arkdan keng mudofaa xandaklari (rov) bilan ajratilgan. B.D.Kochnevning ma'lumotiga qaraganda, Shulluktepa shahristoni

¹⁰ Odilova F., Eshatov I., Jurayeva E. Qadimgi Qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili // Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar. – 2023. – №2. – B.58.

¹¹ Odilova F., Eshatov I., Jurayeva E. Qadimgi Qarshi... – B.58.

deyarli to'rtburchak shakliga ega bo'lib, maydoni 450x350 m (15,7 ga). Uning devorlari qoldiqlarida to'rtta darvozaning o'rnini kuzatish mumkin. Lekin hozirgi zamonaviy internet tizimi dasturlari orqali shahristonning uzunchoq aylana shakliga ega ekanligini kuzatish mumkin. Shahristonni barcha tomondan ulkan rabod o'rab olgan. Rabodning ustki relyefi asrlar davomida shu atrofda yashovchi aholi pishiq g'isht kavlash bilan shug'ullanganligi tamoman o'zgarib ketgan. Rabod hududi 1980 yillarning o'rtalarida tamoman tekislab yuborilgan. Arxeologiya fanida Naxshab shahrining joylashgan o'rnini masalasiga turlicha munosabatlar bo'lgan. M.Y.Massonning fikricha, qadimiy Naxshab hozirgi Qarshi shahrining janubiy qismida joylashgan Qal'ayi Zohaki Moron o'rnida bo'lgan. B.D.Kochnevning fikriga ko'ra esa, Naxshab hozirgi Shulluktepa o'rnida faoliyat ko'rsatgan. Shulluktepa arkida 1970 yillarda B.D.Kochnev tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar asosan arkning asosiy tepaligining eng janubiy qismida va arkka sharq tomondan tutashib ketgan tepalikda o'tkazilgan¹². 1987 yilda M.H.Isomiddinov boshchiligidagi guruh tomonidan Shulluktepa arkining yuqori pog'onasi bo'lmish tepalikda qazishmalar olib borildi.

Bugungi kunda Janubiy O'zbekiston hududidan 20 dan ortiq bronza davri yodgorliklari topilgan. Bular Jarqo'ton, Bo'ston, Kultepa, Maydatepa, Mo'lali va boshqalar bo'lib, ular asosan, Surxandaryo viloyatining Sherobod, Jarqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida joylashgan¹³. Bu yodgorliklarni o'rganish natijasida Sopollitepa madaniyati qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi ekanligini ko'rsatdi.

Teshiktosh g'or-makoni. Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yon bag'ridagi Zavtalashgan darasida joylashgan. 1938–1939 yillarda mazkur g'or arxeolog A.P.Okladnikov tomonidan tekshirilgan. Beshta madaniy qatlamlardan toshdan yasalgan mehnat qurollari, uchrindi tosh qurollar, turli shakldagi nukleuslar, o'tkir uchli tosh nayzalar, tosh pichoqlar, paraqalar, sixcha, qirg'ich, kurakcha, chopper, chopqi va hokazolar topilgan.

¹² Oromov Q. Qashqadaryo vohasi turli davrlarda tarixchilar talqinida // Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2022. – B.59.

¹³ Egamberdiyeva N. Arxeologiya. – Toshkent: Lesson-press, 2023. – B.75.

Teshiktosh g'oridan topilgan mehnat qurollarning aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajargan. Bu yerdan yana faqat neandertal odamiga xos disksimon nukleuslardan (o'zaklar) bir necha nusxa topilgan. Ularning diametri 10–15 sm.ni tashkil etgan. Uchrindi toshlardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Teshiktoshdan bunday tosh qurollar ko'p topilgan. 1938 yilda antropolog G.Gerasimov, uni o'rganib, 9 yoshli neandertal bola deb xulosa bergan¹⁴. 1970 yillarda bu odamni antropolog A.Alekseev tomonidan ham tadqiq qilingan.

Amir Temur g'ori Boysun tog'i mintaqasidan muste davriga tegishli makon hisoblanadi. Bu jiy Teshiktoshdan uncha uzoqda bo'lmagan yerda joylashgan. 1939 yilda yodgorlikni A.P.Okladnikov o'rgangan. Undan 3 ta madaniy qatlam topilgan. 1–2– madaniy qatlamlar so'ngi tosh davriga oid bo'lib, faqat 3–madaniy qatlamdan topilgan tosh qurollar Teshiktoshning yuqori qatlamidan topilgan muste davri qurollariga o'xshaydi.

Xatak makoni Surxondaryoning Sherobod tumani Surxon davlat qo'riqxonasiidagi Bog'li dara tog' massivi hududida joylashgan. Xatak g'ori Xatak qoyasining 15-20 metr balandlikdagi, chiqish juda qiyin bo'lgan joydan topilgan. Arxeolog R.X.Sulaymonovning fikricha, O'rta Osiyoda to'rtlamchi davrda faol orogenez (tog'larning ko'tarilish) jarayonlari natijasida o'rta paleolit davri makonlari yuqoriga ko'tarilib ketgan. Makon 100-40 ming yilliklarga tegishli ekanligi isbotlangan.

Ayritom yodgorligi janubiy O'zbekistondagi mezolit davri yodgorliklaridan biri sanalado. Yodgorlik Termizdan 18 km sharqda, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan ko'p qatlamli makondir. Bu yerdan mezolit davriga oid tosh qurollar, nukleuslar, pichoqsimon paraqalar, uchrindilar, qirg'ichlar, teshgichlar, tosh parmalagichlar, o'q va nayza uchlari topilgan. Ular Obishir, Tutqovul, yodgorliklaridan topilgan tosh qurollariga o'xshab ketadi. Qoyatoshlarga chizilgan rasmlar ibtidoiy odamlarning dunyoqarashini ifodalaydi.

¹⁴ Egamberdiyeva N. Arxeologiya... – B.85.

Zarautsoy – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani Qizil olma qishlog‘idan 5 km. shimolda joylashgan. Hisor tog‘ tizmasining janubida-g‘arbida Ko‘hitong tog‘ining Zarautsoy darasida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikda bo‘lgan. Qoyatosh rasmlari 1912 yilda I.Fyodorov tomonidan topib o‘rganilgan. Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyi direktori, arxeolog G.V.Parfenov 1940-1945 yillarda bu joyda tadqiqot ishlarini olib borgan.

O‘zbekistonning janubiy hududida, hozirgi Surxondaryo viloyatida ilk bronza davridayoq qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan. Uning shakllanishida Murg‘ob vohasidan kelgan dehqonlar asosiy rol o‘ynagan. Ular dastlab Sherobod cho‘lini o‘zlashtirib, Sopollitepa qishlog‘iga asos solganlar. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarni o‘rganib, uni **Sopolli madaniyati** nomi bilan fanga olib kirganlar.

Ular quyidagilardan iborat:

- 1.Sopolli bosqichi—miloddan avvalgi 2150—1900 yillar;
- 2.Jarqo‘ton bosqichi —miloddan avvalgi 1900—1600 yillar;
- 3.Ko‘zali bosqichi —miloddan avvalgi 1600—1450 yillar;
- 4.Mo‘lali bosqichi —miloddan avvalgi 1450—1250 yillar;
- 5.Bo‘ston bosqichi —miloddan avvalgi 1250—1000 yillar;

Sopollitepa manzilgohi Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho‘lida Qaynarbuloqsoy hududida topilgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy—g‘arbida joylashgan. Bu manzilgoh Sherobod cho‘lini o‘zlashtirish jarayonida 1968 yilda L.I.Albaum tomonidan ro‘yhatga olingan. Uning tadqiqot ishlari bilan 1969—1974 yillarda A.Asqarov tomonidan olib borilgan¹⁵. Ushbu madaniyatga tegishli 20 dan ortiqyodgorliklar aniqlangan.

Sopollitepa yodgorligi sopollarida 29 ta belgi chizilgan idishlar topilgan. Ularni akademik A.A. Asqarov shakllariga qarab 8 ta guruhga ajratgan². Birinchi guruh belgilar yarim oy shaklida bo‘lib, shu singari 4 ta belgi topilgan. Ikkinchi guruh belgilar tortilgan kamon shaklida bo‘lib, shu belgi markaziga perpendikulyar to‘g‘ri chiziq tortilgan. Sopollitepadan xuddi shunday 5 ta shakl-belgi topilganligi

¹⁵ Аскарлов А. Саполлитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – С.6. 172

qayd etilgan. Uchinchi guruh belgilar parallel ikki chiziqdan iborat bo'lib, ularning soni 6 ta. Faqat bittasida parallel ikkita chiziqni markazidan birlashtiruvchi uchinchi to'g'ri chiziq chizilgan, natijada «N» harfi ko'rinishidagi belgi hosil bo'lgan. To'rtinchi guruh belgilar xoch shaklida bo'lib, hammasi bo'lib to'rtta shunday belgi topilgan. Beshinchi guruh belgi bitta idishda ifodalangan bo'lib, ikkita aylanani birlashtiruvchi to'g'ri chiziqdan iborat. Ushbu belgini «arava» ko'rinishi deb talqin qilish mumkin, chunki O'rta Osiyo qoya tosh suratlarida arava xuddi shu ko'rinishda tasvirlangan¹⁶.

Jarqo'ton yodgorligi sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar hisoblanadi. U Bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan bo'lib, 100 *ga* maydonni egallagan¹⁷. Bu yerning aholisi ham dehqonchilik bilan shug'ullanib, kamida 500 yil shu yerda yashaganlar.

Adabiyotlarda ta'kidlanib kelinayotgan Jarqo'ton yodgorligining umumiy maydoni «100 gektardan oshiq» degan ma'lumotni nisbiy tushuncha deb qarash kerak. Yodgorlikning gorizonta stratigrafiyasini inobatga olsak, hech qachon bir vaqtda 100 gektarlik maydonda shahar faoliyat etmagan. Undan tashqari yodgorlikning qabriston joylashgan tepaliklarini shahar hududidan ajratadigan bo'lsak, yanada soddaroq shahar planini ko'rishimiz mumkin. Bular A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinovlar o'z asarlarida ko'rsatib o'tgan «ark» va uning atrofida joylashgan sakkizta katta patriarxal urug' jamoalari majmuasidan iborat bo'lgan shahriston»dir. Tepaliklar balandligi jihatidan bir - biridan unchalik farq qilmaydi¹⁸.

Jarqo'ton uch qismdan iborat. Uning arki 3*ga* maydonni egallagan. Arkning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. U yerda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Devor

¹⁶ Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. - Б.138.

¹⁷ Асқаров А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. – С.3.

¹⁸ Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. - Б.112.

qalinligi 3 metr, balandligi 5–6 metr bo'lgan. Hozirda saqlangan qismi 1 metrgacha boradi. Devor kvadrat shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan.

Jarqo'ton arxeologik obidasi bundan 3500 yil muqaddam Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududidan o'tgan Sherobod daryosining ko'hna o'zani Bo'stonsoy yoqasida paydo bo'lgan. Uning maydoni 100 gektardan kam emas. Shahar ikki qismdan iborat, a'ni “Arki A'lo” va “Shahriston”dan iborat. Arki a'loning umumiy maydoni 3 gektardan kam emas. Shahristonda jamoa qo'rg'onlaridan tashkil topgan 20 ga yaqin aholi turar-joy massivlari bor. Shahristondan janubda, qadimgi ariq qoldig'ining orqa tomonida, Bo'stonsoy jarlari bo'ylab, kamida 20 gektar maydonni egallagan nekropol, ya'ni shahar qabristoni joylashgan¹⁹.

Jarqo'ton Termiz shahridan 60 km chamasi shimolda, Sherobod daryosining qadimda Amudaryogacha suvi borib yetgan, hozirda suvsiz to'qayzorga aylangan Bo'stonsoy yoqasida joylashgan ²⁰. Jarqo'tonda turli holatda saqlangan 731 ta qabrlar ochilgan ²¹.

Jarqo'ton qabrlarida bronzadan yasalgan «narvon» nusxasining (votivniy predmet) uchrashi juda ko'p marotaba kuzatilgan². Tadqiqotchilar «narvon» nusxasining qabrlarda uchrashini narigi dunyoga o'tish yoki animistik tushunchalar bilan bog'laydilar³. Jarqo'ton piktografik belgiyozuvlarida ham «narvon»ning ifodalanishi kuzatiladi (35-rasm, 22, 25). Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Eronda joylashgan Shaxdod yodgorligi piktografik yozuvlari orasida ham «narvon» tasviri tushirilgan ifodali yozuvning uchrashi O'rta Osiyo va Eron piktografik yozuvlaridagi parallelliklar xususida gapirishga imkon yaratadi⁴. Umuman Shaxdod yodgorligi sopollarida piktografik belgi-yozuvning ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. U yerda 333 ta belgi alohida ifodalanganligi, 273 ta piktografik yozuvda esa belgilarning uyg'unlashganligini - bir joyda yozilganligini aytib o'tish lozim. Shaxdod yodgorligidan topilgan, sopollarda

¹⁹ Аскарлов А. Энг кадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б.3.

²⁰ Аскарлов А. Энг кадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б.7.

²¹ Аскарлов А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. – С.3.

bitilgan belgilar professor Ali Hakimi tomonidan piktografik yozuv sifatida e'tirof etilgan²².

IX-XII asrlarda Nasaf shahri ilm-fan va madaniyat gullab yashnagan shahar hisoblanadi. Qashqadaryo O'zbekiston janubiy sarhadlaridagi qadimgi va yirik daryolardan biri hisoblanib, uning havzasi atrofida odamlar qadimdan yashab kelishgan. Ularning hayot tarzi mazkur daryo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu hatto ularning urf-odatlariga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Tabiiyki, davrlar o'tishi bilan Qarshi vohasiga qarashli hududlardagi ayrim joylarning nomlari unutilgan, ba'zan esa o'zgarishlar bilan hozirgacha saqlanib kelgan. Qashqadaryoning Navtak, Nasaf va Kesh, Koson, Furdina, G'uzor, Subax, Kojar, Bazda, Ofon kabi shahar va qishloqlari o'tmishda o'ziga xos ilm-fan va madaniyat markazlari bo'lgan. Bular orasida Nasaf alohida o'ringa ega²³.

Janubiy Sug'diyona Kesh va Nasaf vohalarini qamrab olgan tarixiy hamda madaniy jihatdan qadimiy o'lka hisoblanadi. Mazkur hududdan topilgan arxeologik materiallar qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, aholining turmush tarzi va ma'naviyatini aniqlashdagi asosiy manbalar hisoblanadi. Muzey fondlarining noyob eksponatlari sifatidan saqlanayotgan sopol plitkalar, ostadonlar hamda terrakotalarda echki yoki qo'chqor tasvirlari ko'plab uchraydi. Echki tasviri tasodifiy hodisa emas, balki qadimgi Sharq va Osiyo xalqlarining falsafiy mafkurasidan kelib chiqqan. Yakkabog' tumanidagi Alako'ylik qishlog'ining shimoliy qismida joylashgan "Qovurg'a ota" qabristonida go'rkovlar tomonidan topilgan zooantropomorf tasvirga ega sopol terrakota diqqatga sazovordir.

Qashqadaryo vohasi O'zbekistonning janubida joylashgan. G'arbdan sharqqa 300 km, shimoldan janubga tomon 200 km cho'zilgan. Uning tabiiy chegaralari Zarafshon va Hisor tog' tizmalari hisoblanadi. Shimolda va shimoli g'arbda voha Zarafshon vodiysi bilan birlashadi. Qashqadaryo qariyb 300 km.ga cho'zilgan²⁴.

²² Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бахтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. – Б.142.

²³ Хўжаёров А.О. Насаф шаҳрининг Марказий Осиё цивилизациясидаги ўрни // Марказий осиё цивилизация тизимида Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши, 2022. – 6.94.

²⁴ Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент: Фан, 1984. – С.8.

Qashqadaryoning Chiroqchi tumanidan 38 ta yodgorlik saqlanib qolgan. S.K.Kabanovning ma'lumotlariga ko'ra Qarshi vohasida 123 ta tadqiq etilgan yodgorlikning 59 tasi V-VI asrlarga taalluqli.

VI-VII asrlarda Termizning umumiy maydoni 20 ga, Kesh 40 ga, Yerqo'rg'onniki 150 ga bo'lgan. O'sha davrdagi boshqa shaharlar bilan qiyoslaydigan bo'lsak, Samarqand 65 ga, Buxoro 35 ga, Marv 200 ga, Poykent 20 ga, Pandjikent 13-14 ga, Varaxsha 19 ga ni tashkil etgan²⁵.

Qizildaryoning chap qirg'og'ida, Chimqo'rg'on qishlog'idan 400 m uzoqlikda, Yakkabog' tumanining sobiq Pravda kolxozida o'rta asrlarning yirik shahri Qo'rg'ontepa yoki Chimqo'rg'ontepa joylashgan. Uniing birinchi rejasi tasvirini A.S.Sagdullayev tadqiq etgan²⁶. Shahar 400x300 m (12 ga) o'lchamli to'g'ri burchakli shahristondan tashkil topgan²⁷.

Vohaning yana bir qadimiy yodgorligi Sariqtepa uch qismli bo'lib, Eski Yakkabog'dan taxminan 8-10 km uzoqlikda, Uaya posolkasi yaqinidagi Darxan qishlog'ida joylashgan. Shahar 8 ga hududni egallaydi. Shahriston markazida to'g'ri burchakli qal'a (70x45 m) joylashgan. Nasaf shahri S.K.Kabanov ma'lumotiga ko'ra 70-100 ga, B.D.Kochnevga ko'ra qariyb 200 ga maydonni egallagan. Shahristonning o'zi 55 ga keladi.

V.V.Bartold Ibn Xavqalga suyanib Kesh viloyati 16 volostga bo'linganini ko'rsatadi: Miyon-Kesh, Rud, Balandaron, Rasmain, Keshk, Aru, Buzmadjon, Siyam, Argan, Djadjrud, Xazar-rud, Xuzar, Suruda, ichki Sang-gardak, tashqi Sang-gardak Maymug²⁸.

Qashqadaryo vohasining o'rta qismi (zamonaviy Yakkabog', Qamashi, Chiroqchi tumanlari)da shahar tipidagi o'rta asr dehqonchilik vohalarining ma'muriy markazi: Qamaytepa, Oltintepa, Kishmishtepa, Chimqo'rg'ontepa, Gurjob, Sariqtepa, Chandaraktepa, Oltinboshtepa joylashgan²⁹.

²⁵ Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л: Наука, 1973. – С.21.

²⁶ Сагдуллаев А., Низаев П. Разведки в Кашкадарьинской области. – АО 1975 года. – Москва., 1976. С.354.

²⁷ Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент: Фан, 1984. – С.36.

²⁸ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва., 1963. – С.189.

²⁹ Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент: Фан, 1984. – С.44.

1973 yilda o'rta asrlar Nasafining rabod qismida (Shulluktepa) B.D.Kochnev rahbarligida X asrga oid ikkita turarjoy binolari ochiladi. Ular janubiy va shimoliy deb atalgan. Bino hovlilarida kanalizatsiya, ya'na oqava suvlar ketishi uchun tashnav - maxsus yerosti suv tuynuglari mavjud bo'lgan³⁰.

Yuqoridagilardan ayon bo'lib turibdiki, janubiy voha qadimda o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan. Hududdan topib o'rganilgan yuzlab arxeologik yodgorliklar antik davrning boy unsurlarini o'zida yaxshi saqlab qolgan. Olimlarimizning mazkur hududdagi uzoq yillik tadqiqotlari, topilmalari, ilmiy natija va kashfiyotlari dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori e'tirof etilgan.

1.2. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryoda turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'z tarixini qayta o'rganish, yozish va dunyo ma'lum qilish ishlarini amalga oshirdi. Tarixiy-madaniy obyektlarimiz ilmiy ta'mirlanib sayyohlik obyektiga aylantirildi. O'zbekiston boy tarixiy salohiyatidan unumli foydalanish, ishga solinmay turilgan potensialimizni harakatga keltirish maqsadida qator meyoriy huquqiy hujjatlarni qabul qildi va bu turizm sanoatining rivojiga turtki berdi.

Surxondaryo viloyatida ham mustaqillik yillarida tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo'lgan me'moriy inshootlarda ta'mirlash va tiklash ishlari olib borildi. Xususan, arxeologik tadqiqot ishlari Eski Termiz va Sherobod hududlarida ham olib borilib, taniqli yapon olimi Kato Kyudzo boshchiligida amalga oshirildi. 2005-2010 yilda Termiz arxeologik muzeyi xodimlari va Termiz davlat universiteti bilan hamkorlikda Hakim Termiziy ansamblida¹, "Qayrag'och ota" yodgorligida arxeologik qazish ishlari amalga oshirilib, binoning to'liq pishiq g'ishtdan barpo bo'lganligi, maqbara binosida yarim sferik shakldagi gumbaz mavjud bo'lganligi aniqlandi³¹.

³⁰ Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии (V-начало XIII в.). – Ташкент: Фан, 1981. – С.104-105.

³¹ Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий худудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. 29 б.

So'nggi yillarda O'zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston milliy madaniyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi va bilimini oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini asrab-avaylash hamda ommalashtirish, jahon madaniyati maydoniga faol integratsiyani olib kirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, istiqbolda yosh avlodga ma'naviy merosga bo'lgan hurmat hissiyotini mustahkamlash, madaniyat sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyovning «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida», «Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda«Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, shubhasiz, madaniyatsohasidagi yangi yutuqlar, o'zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo'ldi.

Surxondaro tarixida Boysun alohida o`rin egallaydi. Boysunning qadimgi tosh davri bilan bog'liq Teshiktosh, Amir Temur va Machay g'orlari insoniyat madaniyatining qadimiy o'choqlari sifatida jahon tarixshunosligida alohida ifodasini topgan. Boysun jez davri madaniyatining ham asosiy markazlaridan biri bo'lib, ilk ajdodlarimizning ruhiy va ma'naviy kamolotining shakllanishida, diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishida eng muhimi ilk iqtisodiy va ma'naviy hayotni shakllanishiga asos solingan yurtdir. Boysun tarixida Zardushtiylik, Buddizm, Islom dinlarini shakllanishi va rivojlanishiga xos diniy qarashlar alohida ahamiyatga ega. Boysun tarixida iqtisodiy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlar, yerga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik, metal eritish, uy-joy qurilishi va

insoniyat ruhiyatida dafn tartiblari bilan bog'liq g'oyalarning shakllanishiga asos solingan vohadir. Ayniqsa mamlakatimizda ilk temir davrining yuksalishida, jamoa boyliklarini taqsimlash, jamoani boshqarish, sug'orish inshootlarini barpo etishda ham Boysunning o'ziga xos o'rni bor. Boysun tarixida vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik-jasurlik tuyg'ulari, Eron ahamoniylari, Yunon - makedon bosqiniga qarshi kurashda uning mard o'g'lonlari Katan va Avstanning jasurligi hamda Boysun mudofaa inshootlari u haqida Yunon-rim manbalarining tarixiy tahlili muhim ahamiyatga egadir.

Boysun Ipak yo'li chorrahasida joylashib, o'zining iqtisodiyoti, madaniyati, me'morchiligi va shaharsozligida alohida ahamiyatga ega bo'lgan, Arxeolog olimlar T.Annayev va Z.Xoliqovlarning tadqiqotlaridan aniqlangan Qayroq tepa, Avlod, To'da, Dunyo tepa, Munchoq tepa, Boloqo'rg'on, Boysun qo'rg'oni kabi me'moriy inshootlari bilan alohida ajralib turadi. Boysun-Darband istehkomi ostonasi, Temir darvozasi bojxonasi Kushonlar davlatining asosiy tayanchi bo'lib, Xitoy, Rim, Parfiya savdo-sotiq, rasmiy aloqalarni yo'lga qo'yishda asosiy manzil hisoblangan. Chag'oniyon davlatining shimoliy-g'arbiy hududi hisoblangan Boysun badiiy madaniyatning ajoyib yodgorliklariga asos solingan hudud, Eftaliylar, Toxariston, Turk hoqonligining harbiy strategik markazi yirik va qudratli mudofaa inshootlariga ega bo'lgan hamda Firdavsiy kabi buyuk nazm-navo ahlini o'ziga maftun etgan yurt. O'rta asrlarda Saljuqiylar davrida hamda alohida harbiy salohiyatga ega bo'lgan Qoraxoniylar davlatiningsiyosiy hokimiyatini mustahkamlashda Boysun, Termiz va Chag'oniyonning siyosiy-harbiy jihatdan mustahkamlanishida tayanch markazi bo'lgan³². Boysun Amir Temurning harbiy jihatdan mustahkamlanishida, harbiy qo'shinlarni to'plash va harbiy tayyorgarlikdan o'tkazishda ham moddiy ham ma'naviy maskan hisoblangan.

2023 yil o'zbek-chexiya ekspeditsiyalari a'zolari tomonidan Boysun tumani Iskandartepa, Darband devori, Poyonqo'rg'on, Machay, Qo'rg'on kabi yodgorliklaridan madaniy meros ob'ektidan 244 dona paykon uchlari, metall

³² Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти. Халқаро анжуман илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2024. – Б.8.

buyumlar (xo'jalikda foydalanilgan turli buyumlar), ayollarning turli taqinchoq bezaklari topilgan. Shuningdek, 173 dona turli davrlarga oid tangallar jumladan: Yuechji-Kushon, Yunon-Baqtriya kabi davrlarga oid tangalar Termiz arxeologiya muzeyiga topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 04 oktyabrdagi 846-sonli "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxati 1-ilovasiga muvofiq Boysun tumanidan 70 ta madaniy meros ob'ekti ro'yxatga kiritilgan. Shundan 49 tasi arxeologiya yodgorligi, 3 tasi arxitektura, 18 tasi diqqatga sazovor joylar. Madaniy merosni asrash, ta'mirlash tiklash bo'yicha davlatimiz tomonidan katta ishlar olib borilmoqda. Boysun tumanida joylashgan mashhur Uzundara arxeologik yodgorligini konservatsiya qilish, atrofini o'rab olish, obodonlashtirish ishlari uchun 500 million so'mlik mablag' ajratilishi belgilangan. Shuningdek, Boysun tumanida joylashgan Machay masjidini konservatsiya qilish, atrofini o'rab olish, obodonlashtirish ishlari uchun 200 million so'mlik mablag' ajratilishi belgilangan. Bugungi bu ishlar davom etmoqda³³.

Bugungi kunda Surxondaryoda arxeologik yodgorliklarni asrash va turizm obyektiga aylantirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. Surxon vohasida ilk o'rta asrlarga oid ko'pgina yodgorliklar saqlanib qolgan. V asrga tegishli Sherobod vohasida arxeologik jihatdan o'rganilgan Kushonlar davriga tegishli 13 ta yodgorlikdan 8 tasida – Oqqo'rg'on, Cho'ponota, umumiy maydoni ikki qismidan iborat Talashkantepa II, Xalinchaktepa, Anjirtepa I, Xushvaktepa, Ikkizaktepa va Sho'rtepa butunlay tanazzulga yuz tutgan. Shunday qilib, Aniqlangan 26ta kushonlar davri yodgorliklariningyarmi o'z faoliyatini davom ettirdi. Kartografiya ma'lumotlariga qaraganda, vohalar chekkasida joylashgan yodgorliklar sonining qisqarishi munosabati bilan markaziy (masalan, Budrach va Hosiyattepa) kichik aholi punktlarining atrofda birlashishi jarayoni sodir bo'lgan.

³³ Худойбердиев Р. Бойсун – археологик тадқиқотлар, тиклаш таъмирлаш консервация ишлари ҳамда топилмалар // Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти. Халқаро анжуман илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2024. – Б.611.

Markaziy aholi punkti bo'lgan Angora vohasida Kushonlardan keyingi davrda Zartepa qal'asi faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, kichik aholi manzilgohlari soni 3 barobar oshadi. O'z navbatida voqa markazi Zartepadan Qulag'itepaga ko'chgan. Maydoni 1-3 gektar bo'lgan kushon aholi manzilgohlari (Xayrobodtepa kabi) da aholining intensiv ravishda o'rnashishi davom etadi. V-VIII asrlardagi aholi manzilgohlari orasida maydoni 0,5 gadan oshmaydigan kichik qishloqlar ustunlik qiladi, ularning soni 13 tani tashkil etadi. Termiz atrofdagi irrigatsiya rayonida kamayish tufayli Ko'hna Termizning quyidagi madaniy markazlari o'z faoliyatini to'xtatadi: Qoratepa,[3] Fayoztepa. Surxondaryo quyi oqimining chap qirg'og'ida aniqlangan aholi manzilgohlaridan 4 tasi V-VIII asrlarda yangidan vujudga kelgan, qolgan 7 tasida (Kushon qatlamlari bilan) hayot izlari davom etgan. Tahlillarga ko'ra, Surxondaryo quyi oqimining o'ng qirg'og'i va uning yuqori oqimidagi aholi manzilgohlarida ham xuddi shunday manzara kuzatilgan³⁴.

Shimoliy Toxaristonning ilk o'rta asrlar san'ati dunyoviy va diniy xarakterdagi monumental haykaltaroshlik va rangtasvir namunalari, shuningdek, yog'och o'ymakorligi namunalarida o'z aksini topgan. Alohida qiziqish uyg'otadigan va alohida o'rganishga arziydigan Kuyovqo'rg'on haykali Shimoliy Toxaristondagi monumental san'atining ilk namunalariga kiradi. Dastlabki tadqiqotlar hulosalariga ko'ra, Kuyovqo'rg'on qal'asini 10-12 ta haykal bezab turgan. Qazishmalar davomida yodgorlikdan loydan yasalgan haykaltaroshlik parchalari bilan bir qatorda, rasmlaribo'lgan alohida gips bo'laklari ham topilgan, bu bo'laklar devorlarda qoldirilgan maxsus tokchalarga qo'yilgan san'at asarlari (yoki kichik budda haykallari) sifatida dekorativ dizaynni tashkil etgan. Rasmning bo'laklarida faqat o'simlik kurtaklarini eslatuvchi tekis va egri chiziqlar ko'zga tashlanadi³⁵.

³⁴ Abdulakimova D. Toxaristonning ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari arxeologik tadqiqotlari masalalari // Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти. Халқаро анжуман илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2024. – Б.243.

³⁵ Abdulakimova D. Toxaristonning... – Б.244.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”, 2018 yil 16 aprel PF-5416-son “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi islom tsivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2021 yil 3 martdagi 119-son “Moddiy-madaniy meros ob'ektlari va YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari kabi normativ-huquqiy hujjatlarda bunga misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2019 yil 2 aprelda bo'lib o'tgan majlisida “Turizm to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qizg'in muhokamalarda ko'rib chiqilgan edi. Unda deputatlar tomonidan bildirilgan fikr, muhokama va takliflarning asosiy maqsad-mohiyati amaldagi “Turizm to'g'risida”gi qonunga qariyb yetmish foiz o'zgartish va qo'shimchalar kiritilayotgani, turizmga endilikda iqtisodiyotning strategik maqomi berilganidan kelib chiqib, loyiha uchinchi o'qishga “Turizm to'g'risida”gi yangi qonun sifatida tayyorlandi. Unda belgilangan 21 ta asosiy tushunchadan 9 tasi, masalan, “turistik xizmatlar buyurtmachisi”, “joylashtirish vositasi”, “turistik faoliyat” kabi tushunchalar tegishli moddalarga singdirildi va asosiy tushunchalar sirasidan chiqarib tashlandi. Loyiha qator yangiliklar, yangi atamalar va tushunchalarga boy

bo'lgani uchun Qonunchilik palatasining Normativ-huquqiy atamalar komissiyasida qonun ijodkorlari, mutaxassislar va tilshunoslar ishtirokida yana bir bor muhokamadan o'tkazilib, yuridik atamalar va til qoidalariga to'liq muvofiqlashtirildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2019 yil 16 apreľ kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida yangi qonun sifatida «Turizm to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi³⁶.

2020-2021 yillarda dunyo hamjamiyati pandemiya davrini boshidan o'tkazgan bo'lsa-da, O'zbekistonda mazkur sohani jahon andozalari asosida rivojlantirish ishi davom ettirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevralda “O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6165- son Farmoni qabul qilinadi¹⁶⁴. 2021 yil 24 fevralda Vazirlar Mahkamasining “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 100-son Qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qaror bo'yicha viloyatda ichki va ziyorat turizmini ta'mirlash maqsadida ro'yxat shakllantirilib, turizm boshqarmasiga taqdim etiladi³⁷.

Ta'kidlash joiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4095-son Qaroriga ko'ra, Surxondaryo viloyatdagi 8 ta turistik obyektlar Jarqo'rg'on minorasi, Sherobodagi Xo'jaikon tuz g'ori, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi, Oltinsoy tumanidagi So'fi Olloyor, Mavlono Muhammad Zohid va Xo'jaipok ziyoratgohlariga olib boruvchi 59 km. yo'llar ta'mirlandi³⁸.

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19-20 yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor

³⁶ Курбонов А., Хўжаназаров А. Туризм соҳасида янги босқич // “Бойсун-баҳори” очик фольклор фестивалини “жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – Б.51.

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги “Туризм ва спорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори. Электрон манба: <https://www.lex.uz/docs/5356603>.

³⁸ Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – Б.30.

qaratgan edi³⁹. Shunga muvofiq viloyatda 2018-2019- yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilinmoqda. Unda hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratadi.

Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, hududning noyob tarixiy-madaniy va me'moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish, ichki turizmni faollashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlari o'sishini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 332-sonli qarori 2020 yilning 28 may kuni qabul qilindi⁴⁰. Qarorda Surxondaryo viloyatida joylashgan Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligini muhofaza qilish, infratuzilmasini rivojlantirish hamda ushbu ob'ektni sayyoxlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish chora-tadbirlari rejasi belgilandi. Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi «Qoratepa» va «Fayoztepa» hamda Sho'rchi tumanidagi «Dalvarzintepa» yodgorligini muhofaza qilish, hududini obodonlashtirish, infratuzilmasini takomillashtirish va sayyoxlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Qarorning 1-ilovasi 2020-2021 yillarda Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturiga bag'ishlangan. Dasturning VI-bandi Arxeologiya turizmi yo'nalish rivojlantirish va muzeylar barpo etish deb nomlanib, unda quyidagilar belgilangan:

³⁹ Surхондарёда вилоятнинг туризм салоҳиятини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури қабул қилинмоқда // daryo.uz. 2018 йил 7 март.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Сурхондарё вилоятининг туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва уни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 332-сонли қарори. 2020 йил 28 май // www.lex.uz.

- Teshiktosh va Machay g'orlariga yaqin joylashgan qishloqlarda sayyohlar tunab qolishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish.
 - Uzundara va Qo'rg'onzo'l yodgorliklari targ'ibotini kuchaytirish va sayyohlar oqimini ko'paytirish.
 - Sherobod tumanidagi 4000 yillik tarixga ega bronza davri madaniyati yodgorligi hisoblangan "Jarqo'rg'on" arxeologik obyekti yonida ya'ngi bino qurish va unda Jarqo'rg'on muzeyi faoliyatini qayta tiklash.
 - "Qoratepa" va "Fayoztepa" yodgorliklarida turistlar, ilmiy tadqiqotchilar va tashrif buyuruvchilar uchun kulay shart-sharoitlar yaratish, xususan yodgorliklarning tarixiy ko'rinishini saqlagan holda majmuaning muhofaza hududidan tashqarida zamonaviy kompleks dam olish maskanlarini tashkil etish.
- "Fayoztepa" va Al-Hakim At-Termiziy majmualariga keluvchi sayyohlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududdagi mavjud hashoratlarni odam organizmiga zarar keltirishi mumkinligi jihatidan o'rganish va ulardan saqlanish choralarini ko'rish⁴¹.

Qarorning 5-ilovasida Surxondaryo viloyatida joylashgan Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligi infratuzilmasini rivojlantirish hamda ushbu ob'ektni sayyohlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish chora-tadbirlar rejasiga to'xtalib o'tilgan:

Surxondaryo viloyatidagi Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligining qazishma ishlari olib borilgan hamda boshqa hududlarida ob'ektning tarixiy holatini ko'rsatuvchi yozuvli ko'rsatkichlarni o'rnatish.

Fanlar Akademiyasi akademigi E. Rtveladze kitoblaridan hamda boshqa tarixiy-ilmiy manbalardan foydalangan holda arxeologik yodgorlik suvenirlari, targ'ibot materiallari, yodgorlikning xaritasi va videoroliklarini tayyorlash.

Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarning grant mablag'lari hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa mablag'larni jalb qilgan holda, Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligining yemirilishini oldini olish, yodgorlikni qayta ta'mirlash hamda saqlash ishlarini tashkillashtirish.

⁴¹ <https://lex.uz/uz/docs/4832412>

Arxeologik yodgorlik joylashuvidan kelib chiqib, atrofida 500 metrgacha bo'lgan himoya hududini yaratish hamda yodgorlik hududida tashrif buyuruvchilarni qazilma ob'ektlariga zarar yetkazmasligini ta'minlash maqsadida sayyohlar yurishi uchun maxsus so'qmoqlarni yaratish.

Arxeologik yodgorlikning kirish joyida ob'ektning tarixiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda ramziy darvoza o'rnatish.

Ramziy darvoza yonida Oks Aleksandriyasi (Kampirtepa) arxeologiya yodgorligiga tashrif buyuruvchilarga kirish chiptalarini sotishda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida zamonaviy axborot texnologiyalarini (elektron билет sotish tizimi, kuzatuv kesheralari va turniketlar) o'rnatishni ta'minlash.

Arxeologik yodgorlik haqida batafsil ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish va muntazam yangilab borish.

Arxeologik yodgorlikni keng ommalashtirish hamda targ'ib qilish maqsadida yodgorlik hududida «O'tmishga sayohat» nomli etno-arxeologik onlayn festivalni tashkil qilish⁴².

1.3. Janubiy vohalarda tashkil etilgan kompleks ekspeditsiyalar hamda uning ilmiy natijalarining zamonaviy turizm rivojidagi ahamiyati

Surxon vohasining bronza va ilk temir davri tarixi va madaniyatini o'rganilishiga katta hissa qo'shgan bir qator olimlar -L.I.Albaum, E.V.Rtveladze, T.V.Belyaeva, Z.A.Hakimov, Sh.R.Pidayev, A.S.Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev, U.V.Rahmonov tadqiqotlarini qayd etib o'tish joiz.

Surxon vohasining antik va ilk o'rta asrlar tarixi va madaniyatini tadqiq etishda L.I.Albaum, E.V.Rtveladze, B.A.Turg'unov, D.G.Sidorova, T.V.Belyaeva, Sh.R.Pidayev, Ye.G.Nekrasova, M.X.Isxakov, Sh.Raxmonov, T.Annayev, Dj.Ya.Ilyasov, S.Savchuk-Qurbonov, S.B.Bolelov, L.M.Sverchkov,

⁴² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Сурхондарё вилоятининг туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва уни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 332-сонли қарори. 2020 йил 28 май // www.lex.uz.

N.D.Dvurechenskaya, A.A.Voskovskiy, T.K.Mkrtichev, O.V .Dvurechenskiy kabi tadqiqotchilarning xizmati alohida diqqatga sazovor.

Dalvarzintepa (B.A.Turg'unov, E.V.Rtveladze, T.V.Belyayeva, Ye.G.Nekrasova, Dj.Ya.Ilyasov, S.Savchuk-Qurbonov), Kampirtepa (E.V.Rtveladze, Dj.Ya.Ilyasov, S.V.Bolelov, L.M.Sverchkov, N.D.Dvurchenskaya, A.A.Voskovskiy), Qo'rg'onzol (L.M.Sverchkov), Uzundara (N.D.Dvurechenskaya) kabi yodgorliklarning aniqlanishi hamda ilmiy jihatdan o'rganilishida kafedra bitiruvchilarining o'rni beqiyos. Shunisi ham ahamiyatliki, o'tgan asrning 70-80-yillarida akademik G.A.Pugachenkova rahbarligidagi O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi ToshDU arxeolog va tarixchi talabalarining dala arxeologika amaliyoti tayanch markaziga aylangan (amaliyot Dalvarzin, Qiziltepa va Bandixon yodgorliklarida amalga oshirilgan).⁴³

L.I.Albaum tomonidan 1949 yilda Surxondaryo viloyatining hozirgi Angor shahridan 4 km janubi-sharqiy qismida Bolaliktepa yodgorligi aniqlangan bo'lib, 1953-1955 yillarda yodgorlikda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Bolaliktepadan aniqlangan devoriy suratlar nafaqat O'zbekiston balki, Sharq madaniyati tarixida ham muhim ahamiyatga ega. 1968 yilda Fayoztepa yodgorligi aniqlanib, yodgorlikda keng ko'lmalı tadqiqotlar esa 1969-1976 yillar davomida olib borildi⁴⁴.

Janubiy O'zbekiston tosh davrini ilmiy o'rganish ishlari 1938 yilda o'rta paleolit davriga oid mashhur Teshiktosh g'orining ochilishi bilan boshlangan ⁴⁵.

Teshik-tosh g'ori Boysun shahridan 18 km shimolda, Machaydarèning chap qirg'og'idagi Zavtaloshsoyning o'rta oqimida joylashgan. Machaydarè Boysuntog'ning shimoli-g'arbiy etaklaridan oqib o'tadi va u Amudarèga quyiladigan Sheroboddaryoning chap irmog'i hisoblanadi. G'or kelloveyoksford tipidagi ohaktoshda hosil bo'lgan va hozirgi Machaydarèdan taxminan 500 m

⁴³ Тоғаев Ж.Э. Кафедра битирувчиларининг Жанубий Ўзбекистон маданияти ва тарихини ўрганишга қўшган хиссаси // Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари / Кафедра археологии Средней Азии: поиск и открытия поколений. – Тошкент, 2020. – Б.222.

⁴⁴ Тоғаев Ж.Э. Кафедра битирувчиларининг.... – Б.223.

⁴⁵ Окладников А.П. Исследование палеолитической пещеры Тешик-Таш (предварительное сообщение) // Труды Узб. филиала АН СССР. Вып.1. 1940.

balandda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1800 m ni tashkil qiladi. G'orning kirish qismini balandligi 7 m bo'lib, eni 20 m dan iborat⁴⁶.

Amir-Temur 1 g'ori yuqori Machay qishlog'idan 2,5 km g'arbroqda, Amir Temur nomli soyda joylashgan ($A=273^\circ$), uning absolyut balandligi 1740 m.dan iborat. G'or karstli kelib chiqishga ega bo'lib, uzunligi 70 m, eni 23 m hamda tomining balandligi 3,8 m ni tashkil qiladi. G'orning og'zi shimoli-sharqqa qaragan. Yodgorlik I.F. Lamaev tomonidan ochilgan va 1938-1939 yillarda A.P.Okladnikov va 1939-yilda G.V.Parfenov tomonidan o'rganilgan⁴⁷.

1962 yilda L.I.Albbaum O'zbekiston janubidagi birinchi o'troq dehqonchilik manzilgohi, so'nggi bronza asriga oil Kuchuktepani ochadi⁴⁸. 1963-1965 yillarda manzilgohda arxeologik qazishma ishlari olib boriladi.

1968 yilda Sopollitepa yodgorligi ochiladi. Mazkur yodgorlik O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Sherobod arxeologik otryadi tomonidan 1969-1974 yillarda o'rganiladi. 1971 yilda A.Asqarov Sherobod vohasining ikki uncha katta bo'lmagan yodgorlik qoldiqlari Kultepa va Kichiktepалarni tadqiq etadi⁴⁹.

1973 yil bahorida Sh.Pidaev va V.Pilipko yangi punkt - Jarqo'ton manzilgohini aniqlaydi. Ushbu yilning kuzida A.Asqarov hududning janubidagi ikkita qabrni ochishga muvaffaq bo'ladi. Manzilgoh va qabrlar qadimiy Sheroboddaryoning chap qirg'og'i, Guliston sovxozi hududidagi, Sherobod markazidan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan. 1974 yilda daryo o'zanining o'ng qirg'og'ida Asqarov Bo'ston-1,2,3,5 to'rtta qabr va kulollar mahallasi Bo'ston-4 manzilgohini ochib, ilmiy jamoatchilikka ma'lum qiladi⁵⁰.

⁴⁶ Ражабав А.Ю., Махкамova Н.А. Жанубий Ўзбекистоннинг қадимги тош даври археология ёдгорликларини ўрганилиш тарихи // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎЗР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.16.

⁴⁷ Окладников А.П. Исследование палеолитической пещеры Тешик-Таш (предварительное сообщение) // Труды Узб. филиала АН СССР. Вып.1. 1940. – С. 67-69.

⁴⁸ Норқобилов Т.Х. Жанубий Ўзбекистон бронза даври археологияси йўналишларининг шаклланиши ва ривожланиши (XX асрнинг 60-80 - йиллари) // Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари / Кафедра археологии Средней Азии: поиск и открытия поколений. – Тошкент, 2020. – Б.213.

⁴⁹ Асқаров А., Абдуллаева Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. – С.4-6.

⁵⁰ Асқаров А., Абдуллаева Б.Н. Джаркутан... – С.5.

Asqarov ekspeditsiyasi Mirshod tumanida miloddan avvalgi II mingyillik oxiri - I ming yillik boshlariga oid nomsiz ko'plab tepaliklarni ochishga muvaffaq bo'ladi. Qiziljar qirg'oqlarida Qiziljartepa va Ochamaylitepalar aniqlanadi. Ochamaylitepaning shimoliy-sharqiy qismida bronza davriga oid qabrlar topib o'rganiladi.

Molalitepadan uncha uzoq bo'lmagan Qiziljar va Qizilsuv tomonida San'atshunoslik instituti otyardi yana bir manzilgoh - Bo'yrachitepa-1 ni ochadi. 1973 yilda E.V.Rtveladze Urgulsoy o'zanida Bandixon va uning tarikibiga kiruvi turli davrlarga oid qator yodgorliklarni topadi. Bronza davriga oid qabrlar Sho'rchi, Denov, Jarqo'rg'on tumanlarida aniqlanadi.

1974 yilda Janubiy Tojikiston ekspeditsiyasi Nurek yodgorligini tadqiq etish otryadi Nurekdan 8 km uzoqlikda joylashgan Vaxsh tumanidagi bir necha qabrlarni tadqiq etadi⁵¹. Bu yerdan topilgan 16 ta qabrlar Sopollitepa madaniyatining molali bosqichiga o'xshab ketadi.

Jarqo'ton qabrlari va manzilgoh mikroelefi aniq hududiy chegaralarga bo'lingan. Jarqo'ton - 1, Jarqo'ton - 2, Jarqo'ton - 3, Jarqo'ton - 4. Qabristonning umumiy maydoni 20 ga dan ortiq. Jarqo'ton-3 18 ga ni tashkil etadi. Jarqo'ton-4 uchta uncha katta bo'lmagan tabiiy tepalikdan iborat bo'lib, 2,5 ga dan iborat. Qabrlarning chuqurligi 40 sm dan 170 sm gacha yetadi.

Hududdagi tadqiqotlar davomida 49 ta alohida bolalar qabrlari ham topiladi. 30 ta qabrdagi bolaning yoshi 1 dan 7 yoshgacha, shuningdek, 8-15 yoshgacha bo'lgan.

Qashqadaryo vohasining tosh davri haqida dastlabki materiallar V.A.Ranov tomonidan 1960 yillarda Tanxoz darèsining ochilib qolgan terrasalaridan topilgan. Bu yerdan topilgan materiallar orasida bir dona qirg'ich va paykon mavjud bo'lgan hamda ular taxminan o'rta paleolit davri bilan sanalangan. Qashqadarè vohasining tosh davrini rejali ravishda o'rganish ishlari Respublikamiz mustaqillikka

⁵¹ Аскарлов А., Абдуллаева Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. – С.6.

erishganidan keyin boshlandi va bu yerdan Angilloq va Shayx-Avval 2 kabi paleolit davri g'or makonlari ochib o'rganildi⁵².

1967 yilda Galina Anatolevna Pugachenkova Dalvarzintepaning shahar devori ichki qismlari qazishmalarida ishtirok etadi. Bu yerda bino qoldiqlari va budda ibodatxonasi o'rganiladi. 1698-1972 yillarda Dalvarzintepaning Dt-5 ob'ektida qazishmalari olib boriladi. Ob'ekt shahar devoridan 60 m sharqda joylashgan. Qazishmalar chog'ida kompleksning 22 ta binosi to'liq ochiladi. 1696-1972 yillarda Dt-6 ob'ektida qazishma ishlari olib boriladi. Bunda 28 ta bino ochib o'rganiladi⁵³.

Amudaryo sohillari bo'yidagi 3 ta yodgorlik: Sho'rtepa (1963-1965), Ayritom (1963-1966), Xotinrabot (1966) Dalvarzintepaning yaqin okrugiga kirgan. G.A.Pugachenkova rahbarligida qazishma ishlarida nafaqat hududning moddiy madaniyatiga oid, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir boy materiallar qo'lga kiritiladi.

Stratigrafik kuzatuvlar mazkur yodgorlikning umumiy rekonstruktsiyasi va navbatdagi stratigrafik qatlamlar bo'linishini taqdim etdi:

- ShT-1 qatlam (7,8-8 m) va ShT -2 (7-6,1 m) yunonbaqtriya davriga to'g'ri keladi
- ShT-3 (6,1-5,2 m) sak-yueyji tarkibiga kiruvchi Shimoliy Baqtriya tumanlari
- ShT-4 (5,2-3 m) Kadfiz I davri tangalari, mil.av I m.y.
- ShT-5 (3-1 m)
- ShT-6 (1 m chuqurlik va tepalikning yuza qismigacha).

Baqtriyaning antik davrgacha bo'lgan madaniyatini tadqiq etish maqsadida ilk shaharsozlik sivilizatsiyalari shahar-qo'rg'onlari o'rganiladi. Surxondaryo hududida Xolchayon (1959-1963), Ayritom (1964-1966, 1979), Dalvarzintepa (1960-1963, 1967 yildan hozirgi kungacha), Qiziltepa (1970, 1986), Bandixon (1972-1976),

⁵² Маҳкамova Н.А. Қашқадарё воҳаси тош даври ёдгорликлари ўрганилиш тарихидан // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎзР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.21.

⁵³ Муродова Д.Х. Галина Анатольевна Пугаченкова – архитектор, археолог, искусствовед. – Фергана: Наврўз, 2019. – С.43.

Kampirtepa (1979,1982-1991)da keng qamrovda tadqiq etiladi. G.A.Pugachenkova rahbarligida Baqtriyaning mudofaa qurilishi, arxitektura, qadimiy diniy e'tiqodlari o'rganiladi⁵⁴.

Surxondaryoga olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Kushon davri (mil.av. I - mil. III a.) Kushonlar davri arxitekturasida yodgorliklari katta masshtabda tadqiq etildi. Antik davr arxitekturasida obyektlari Xolchayon saroyi, haykaltaroshlik namunalari, Dalvarzintepa, Xotin rabotdagi turarjoylar, Ayritom, Dalvarzintepadagi budda ibodatxonalari, Chordingak, Termizdagi Zurmala buddasi, Bandixon va Dalvarzintepadagi dafn inshootlari ochilishi O'zbekistonning janubiy hududlari arxeologik salohiyati yanada oshirdi.

Qashqadaryo vohasida topilgan ilk temir davriga oid birinchi yodgorlik Chiroqchi manzilgohi bo'lib, keyinchalik Yerqo'rg'on qishlog'i madaniy yotqiziqlari negizida ilk temir davri qatlamlari topilgan, so'nggi yillarda esa Toshkent davlat universiteti arxeologiya kafedrasi tomonidan Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida ilk temir davriga oid o'ndan ortiq manzilgohlar aniqlandi. Ularning dastlabki tipologik tadqiqini A.S.Sagdullayev olib bordi. A.S.Sagdullayev o'rgangan aholi punktlari orasida ularning ikki turini ajratib ko'rsatadi: atrofi to'rtburchak yoki dumaloq devor bilan o'ralgan, maydoni to'rtidan ikki gektargacha bo'lgan aholi punkti va mustahkamlanmagan tarqoq posyolka shaklida kichik istehkomga ega. katta tepalik. Yerqo'rg'on va Chiroqchi posyolkasi o'rnida joylashgan ilk aholi punktining arxitektura-rejaviy xususiyatlarini baholash qiyin, chunki. birinchisi uning negizida qurilgan qadimiy shaharning ulkan qalinligi bilan to'sib qo'yilgan, ikkinchisi esa Chimqo'rg'on suv ombori suvlari tomonidan vayron qilingan. Chiroqchi manzilgohida faqat yupqa madaniy qatlam ko'rinishidagi madaniy yotqiziqlarning quyi qismi qoldiqlari va kulolchilik buyumlari, hayvon suyaklari, alohida tosh buyumlari bo'lgan xo'jalik chuqurlari topilgan N.I.Krashennikova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan 1981-1984- yillarda Sho'robsoyning o'rta oqimida mil.avv. I ming yillik birinchi

⁵⁴ Муродова Д.Х. Галина Анатольевна Пугаченкова – архитектор, археолог, искусствовед. – Фергана: Наврўз, 2019. – С.62.

yarimiga oid Sangirtepa, Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari ochib o'rganildi, hamda ularning mudofa devorlarni o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazildi⁵⁵. Bu yerda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Uzunqir o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari taxminan 700-800 metr uzoqda joylashgan Sangirtepa yodgorligi esa Uzunqir yodgorligidan janubda joylashgan bo'lib, orasidagi masofa taxminan 1 kmni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan devor bilan o'ralgan yirik inshoot barpo etiladi⁵⁶. Mil.avv.VIII-VI asrlarda yodgorlik atroflari o'zlashtirilib, quruluşlar olib borilgan. Tadqiqotlar davomida Sangtepa manzilgohidan mil.avv. IX-VII asrlarga oid odam sklet suyagining qoldiqlari ham topilgan

Sopolli madaniyatining asosiy yodgorliklari tarkibiga Sopollitepa, Jarqo'ton, Mo'lali, Bo'ston, Tillabuloq va boshqa bir qator yodgorliklarni kiritish mumkin. So'nggi 20 yil mobaynida Sopolli madaniyati yodgorliklarida o'zbekistonlik mutaxassislar rahbarligidagi arxeologiya ekspeditsiyalari qazuv tadqiqotlari ko'lami keskin ortdi. Xususan, 1994-2003 yillar mobaynida Germaniya arxeologiya instituti, 2007-2010 yillari Germaniya arxeologiya instituti Tillabuloq yodgorligida, 2006 yildan hozirgi kungacha Frantsiyaning CNRS ilmiy markazi olimlari Jarqo'ton yodgorligida O'zbekiston arxeologlari bilan hamkorlikda arxeologik qazishmalar olib bormoqdalar⁵⁷.

1998-2002 yillar oralig'ida Jarqo'ton - arkining janubiy qismida 9 xonadan iborat katta patriarxal oila yashagan uy qoldig'i ochilgan. Ushbu uy bir quruluş davriga oid bo'lib, Sopolli madaniyatining Jarqo'ton davri bilan sanaladi. Uning

⁵⁵ Oltiyev Q. Qashqadaryo vohasi ilk temir davri yodgorliklari // Journal of new century innovations. – 2022 december. Volume–18_Issue 4. – B.66.

⁵⁶ Oltiyev Q. Qashqadaryo vohasi...– B.67.

⁵⁷ Раҳимов К.А., Холманов А.У. Сополли маданиятининг камин-ўчоқлари бронза даври жамоаларининг ижтимоий ҳаёти ҳақида муҳим манба // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талкинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎЗР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.23.

№1, 2, 6, 8-xonalarida kamin-o'choqlar qayd qilingan. Bundan tashqari, Tilla Buloq èdgorligida ham kamin-o'choq qayd qilingan⁵⁸.

Amir-Temir 1 g'oridan 2003-yilda topilgan yagona topilmadan tashqari, RFA SB AEI omborlarida A.P.Okladnikov qazishmalaridan olingan 47 ta tosh buyumlar saqlanmoqda. Ulardan 25 tasi tosh siniqlari, 7 tasi nukleusimon shaklli toshlar, 2 tasi plastinalar, 7 tasi uchirindilar va 6 tasi tosh qurollardan iboratdir. To'plamning tosh qurollari asosan galkalardan yasalgan. Barcha tosh buyumlar kulrangli kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan. To'plamdagi yirik plastinasimon yo'nalg'ining medial qismi saqlanib qolingan va uning dorsali ikkita parallel ravishdagi negativlar bilan qoplangan, biroq uning shakli subparallel va noto'g'ri divergent ko'rinishga ega. To'plamning uchirindilari orasida yirik hajmdagilari ko'pchilikni tashkil qiladi. Qolganlari esa o'rta hajmli bo'lib hisoblanadi. Ushbu tosh buyumlarning deyarli barchasining zarb maydonchalari tekis va faqatgina bir uchirindining zarb maydonchasi galkali qobiq bilan qoplangan. Dorsallarining xarakteri parallel yoki sistemasiz ko'rinishda bo'lib, uchirindilardan biri birlamchi xarakterga ega⁵⁹.

Janubiy O'zbekiston hududidagi bronza davriga oid yodgorliklarda olib borilgan 45 yillik arxeologik dala tadqiqot ishlari natijasida 100 ga yaqin muhr-tamg'alar topilgan, ularning ayrimlari arxeologik adabiyotlarda yoritilgan, birlamchi tipologiya ham qilingan⁶⁰.

Sopolli madaniyati muhrlari shakl jihatdan ham xilma-xil bo'lib, 14 ta tipga ajratildi: 1. Majoziy shaklli; 2. Silindrsimon; 3. Pillapoya gardishli, xochsimon shaklli; 4. Tekis yuzali, to'g'rito'rtburchak shaklli; 5. To'g'ri burchakli, tekis, ikki yuzali muhrlar; 6. Konussimon; 7. Kvadrat shaklli; 8. Yulduzsimon; 9. To'pbargsimon; 10. Doira shaklli ikki yuzali; 11. Doira shaklli, qavariq bo'lgan ikki yuzali; 12. Doira shaklli, tugmasimon; 13. Pardevor yuzali; 14. Soch to'g'nag'ich

⁵⁸ Раҳимов К.А., Холманов А.У. Сополли.... – Б.24.

⁵⁹ Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. Вып.28. 1940в

⁶⁰ Шайдуллаев А. Сополли маданияти муҳр-тамғалари типологияси // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талкинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎзР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.26.

shakldagi muhrlar. Bu tipologiyaga ko'ra, ayrim shakldagi muhr-tamg'alaroz shakllariga qarab turlarga ham ajraladi. Masalan, yulduzsimonlarni olti, yetti, sakkiz va o'nqirrali muhrtamg'alarga bo'lish mumkin⁶¹.



Termizning yapon fuqarosi. Kato Kyudzo 1922 yilda Koreyaning Tegu shahrida tug'iladi. U 2-jahon urushi davrida asirga tushib, Sibirda 5 yil yashagan. Shu sababli rus tilini yaxshi bilgan. U asirlikdan keyin arxeologiya sohasiga qiziqib qoladi va 1989 yilda O'zbekistonga kelib 27 yil mobaynida qidiruv ishlarida qatnashadi. O'zbekiston arxeologiya qo'shgan ulkan hissasi uchun 2002 yilda Termiz shahri hokimining qarori bilan unga Termiz shahrining faxriy fuqarosi unvoni berilgan. “2020 yilda Kyudzoning yaqinlari O'zbekiston hukumatiga xat bilan murojaat qilishib, uning xotirasiga haykal, mehmonxona va yapon bog'i qurish taklifi bilan chiqishgan va bu loyiha uchun 7,5 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratadigan bo'lishgan. Koronavirus pandemiyasi sababli

⁶¹ Шайдуллаев А. Сополли.... – Б.27.

to'xtab qolgan qurilish ishlari endi boshlanish arafasida. Bu loyiha uchun Termiz shahrida joy ham ajratilgan⁶².



2000 yili Qashqadaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyida “Qarshi shahrining tarixi va etnografiyasi, zardo'shtiylik dahmalari” mavzusida xalqaro anjuman o'tkazildi. Xalqaro anjumanda Isroil, Germaniya, Turkiya, AQSh, Frantsiya, Afg'oniston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina va boshqa davlatlardan kelgan olimlar ishtirok etdi. Anjumanda Qashqadaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyi xodimlari tomonidan “Qashqadaryo xalq amaliy san'ati va etnografiyasi” deb nomlangan ko'chma ko'rgazma namoyish qilindi. Muzey ishini yaxshilashda xorijiy davlatlarning mutaxassisleri bilan ilmiy uchrashuvlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Termiz Arxeologiya muzeyida 2002 yil 22 aprelda Yaponiya arxeologiya ekspeditsiya vakili K. Kato, shu yilning 6 may kuni rossiyalik arxeolog olim V.S.Solov'ov, Rossiyaning “Sharq muzeyi” katta ilmiy xodimi arxeolog olim T.Mkrtchev bilan ilmiy uchrashuvlar o'tkazildi. Xorijlik mutaxassislar uchrashuvda muzey ishi bo'yicha muhim ma'lumotlarni bayon qildi. 2007 yil 7-11 mayda respublika muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish muzey xodimlarining kasbiy mahoratini va malakasini oshirish, ularni zamonaviy bilimlar va yangi ish shakllari bilan tanishtirish maqsadida “Dasht i Art”

⁶² Усманий С. Македонский тангаларидан Бухоро амири коғоз пулларигача – Ўзбекистондаги ягона археология музейидан фоторепортаж // kun.uz. 2023 йил 3 апрел.

zamonaviy madaniyat markazining “Muzey ekspozitsiyasi zamonaviy tajriba va imkoniyatlar” mavzusidagi ilmiy seminari Shahrisabz shahar moddiy-madaniyat tarixi muzeyida o'tkazildi. Rossiyalik san'atshunos Gotkina Svetlana Aleksandrovna ushbu seminarda ishtirok etib, o'zining muzey ishi bo'yicha tajribalari bilan ishtirokchilarni tanishtirdi. Termiz Arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimi T.Annayev 2008 yilning 28 sentyabridan - 10 oktyabrigacha Hindistonda ilmiy safarda bo'lib, Dehlidagi “Xalqaro markaz” va Banoras universitetida Kushonlar arxeologiyasiga bag'ishlangan ilmiy seminarda ishtirok etdi. Shu muzeyning “Tosh davri” bo'limi katta ilmiy xodimi Sh.B.Shaydullaev esa 2009 yili Ashxobod shahrida o'tkazilgan Xalqaro konferentsiyada “Dexistan na paroge ranneklassovogo obshchestva” nomli ma'ruzasi bilan qatnashdi. Shu yilning 18 may - Xalqaro muzeylar kunida Termiz Arxeologiya muzeyida frantsiyalik professor Jerar Fussman “Kushon davlati tarixi haqida yangi izlanishlar” mavzuida ma'ruza qildi. Shuningdek, frantsiyalik professor J.Fussmanning amaliy yordami bilan numizmatika fondida saqlanayotgan turli davrlarga mansub tangalarning qaysi davrga mansublik darajasi va yozuvlarini aniqlashtirish ishlariga yordam berdi.

Hozirgi kunda ham janubiy vohalar, xususan, Surxondaryo muzeyi xodimlari xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlab kelmoqda. Jumladan, 2012 yil O'zbekiston muzeylarining ilmiy xodimlari ko'plab xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan yil bo'ldi. Masalan, Termiz Arxeologiya muzeyi “Numizmatika” bo'limining katta ilmiy xodimi J.Mirzaev 2012 yil 1-5 oktyabr kunlari Ozarbayjon Respublikasida bo'lib o'tgan Yevroosiyo arxeologiyasi xalqaro konferentsiyasida “Evroosiyo hududida arxeologik tadqiqotlarning istiqbollari va arxeoturizm” mavzusidagi, shu yilning 22-23 martida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston va Germaniya davlatlarining o'zaro kelishuviga muvofiq “Ta'lim va fan - O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ko'pri” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etdi.

Sopollitepa yodgorligidan bir necha turdagi oshxona jihozlari - qozonlar, qozonchalar va tovalar topilgan. Mazkur idishlar olovga chidamli maxsus loydan qilingan, loy tarkibidagi qum, shamot, maydalangan tosh zarrachalari, gips, kvarts

va boshqa elementlar uchraydi. Sopollitepadan hammasi bo'lib 12 dona qo'lda yasalgan tova topilgan. Ularning loyi tarkibida shamot, mayda tosh zarrachalari, gips va qum uchraydi. Idish yassi tagdonli va tagdonidan yon devoriga o'tish joyi tarnovga o'xshash, yon devorining balandligi 4-5 sm, gardish diametri 30 sm.dan kam bo'lmagan, ularning tagdon qismining qalinligi 2-2,5 sm⁶³.

Umuman olganda, XX asrning 60 - 80 - yillarida Janubiy O'zbekiston yodgorliklarining o'rganilishi natijasida muhim arxeologik ma'lumotlar qo'lga kiritilgan⁶⁴. Ularning o'rganilishi natijasida quyidagi masalalar tahlil qilingan:

Janubiy O'zbekistonda qadimiy dehqonchilik markazlarining shakllanishi va ularning joylashuvini rayonlashtirish;

Sopolli madaniyati yodgorliklari, bronza davri sopol idishlari, mehnat qurollari va yarog'-aslahalari;

Sopolli madaniyati tarixining davrlashtirish hamda Surxon vohasida dehqonchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi muammolari;

bronza davri me'morchiligi va binokorlik usullari.

⁶³ Раҳимов К.А. Сополли маданиятининг товалари ва манқалдонлари // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 38-нашри. – Самарқанд. 2012. –Б.125.

⁶⁴ Норқобилов Т.Х. Жанубий Ўзбекистон бронза даври археологияси йўналишларининг шаклланиши ва ривожланиши (XX асрнинг 60-80 - йиллари) // Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари / Кафедра археологии Средней Азии:поиск и открытия поколений. – Тошкент, 2020. – Б.219.

II BOB. O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

2.1. Termiz arxeologiya muzeyi va zamonaviy turizm

Termiz arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va loyihasi bo'yicha Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan viloyat hokimining 2001 yil 26 noyabrdagi 218-sonli qarori asosida tashkil etilgan. Muzeyning rasman 2002 yil 2 aprel. kuni ochilgan.

Termiz arxeologiya muzeyi mamlakatimizda yagona arxeologiya yo'nalishdagi muzey bo'lib, ixtisoslashgan muzeylar sirasiga kiradi. Bu muzey qadim Surxon vohasining ko'p ming yillik tarixini o'zida jonlantiruvchi shahrimizning eng diqqatga sazovor maskanlaridan biri hisoblanadi.

Termiz arxeologiya muzeyi kirish zali, 9 ta asosiy ko'rgazma zallari, numizmatika ko'rgazma zali, yapon arxeolog olimi Kato Kyudzoga bag'ishlangan ko'rgazma zali, kichik ko'rgazmalar zali va ayvon osti galereyasidan iborat⁶⁵. Shuningdek, muzeyda nodir qo'lyozmalar va adabiyotlar saqlanadigan kutubxona ham mavjud.

Muzey o'zining kutubxonasiga ega bo'lib, unda XVI asrdan to hozirgi kunga qadar nashr qilingan arxeologiya, numizmatika, arxitektura, topografiya, san'atshunoslik, tilshunoslik sohalariga oid ijtimoiy, badiiy, ilmiy, tabiiy va aniq fanlarga taalluqli adabiyotlardan iborat 18 mingta nodir manba saqlanadi. So'nggi 25 yil davomida vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar ham ushbu muzey ilmiy kutubxonasidan o'rin olgan⁶⁶.

2002 yili Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan rasman ochilgan. Undagi ko'plab eksponatlar arxeologik yodgorliklar va topilmalar bo'lib, hudud geografiyasi bilan bog'liq.

Makedoniyalik Iskandarning bosqinidan to Yunon-Baqtriya podsholigining qulashigacha bo'lgan, o'zida mujassamlangan eksponatlar mavjud. Numizmatika

⁶⁵ <https://stam.uz/about/> (Murojaat etilgan sana: 15.03.2024)

⁶⁶ 18 май — Халқаро музейлар куни. Ўзбекистон музейларини биласизми? // bugun.uz. 2021 йил, 18 май.

ko'rgazmalar zalida numizmatikaga oid qimmatbaho buyumlar va topilmalar o'z o'rnini egallaydi. Ayvon ostidagi galereyada katta hajmdagi eksponatlar joylashgan. Kutubxonada 3700 dan ortiq qo'lyozma, tarixiy adabiyot va badiiy kitoblar mavjud⁶⁷.

Muzey zallari:

Kirish zal qismida bronza davridan (mil.avv. 3-2 ming yillik) eramizning XV asrigacha bo'lgan davr topilmalari o'rin olgan;

- Kato Kyudzo ko'rgazma zali - Yaponiyalik olim Kato Kyudzoning hayoti va ilmiy tadqiqotlariga bag'ishlangan ko'rgazma zal hisoblanadi

- I zal - "Surxon vohasi tosh davrida" (100-3 ming yilliklar) deb nomlanadi. Paleolit, mezolit, neolit va eneolit davrlariga oid bo'lgan eksponatlar ushbu zaldan o'rin olgan.

- II zal - "Surhon vohasi bronza davrida" (mil avv. 3-2 ming yilliklar) deb nomlanadi va shu davrga oid topilmalar namoyish etiladi.

- III zal - "Qadimgi Baqtriya madaniyati" (mil.avv. I ming yillik boshlari– mil.avv. IV asr oxiri) deb nomlanib, Surxon vohasining so'nggi bronza va ilk temir davrlariga oid bo'lgan moddiy madaniyat namunalaridan tarkib topgan.

- IV zal - Baqtriyaning makedoniyalik Aleksandr va Ellinistik davlatlar davri madaniyati (mil.avv. 329 yil – mil.avv. II asr o'rtalari) zali vohamiz hududiga Aleksandr Makedonskiyning bostirib kelishidan to Yunon-Baqtriya podsholigining parchalanishigacha bo'lgan davr oralig'idagi eksponatlarni o'zida mujassam etgan.

- V zal - "Qadimgi Baqtriyaning Kushon podsholigi davri madaniyati" (mil.avv. I-milodiy III asrlar) deb nomlanadi va shu davrga oid eksponatlar joylashgan.

- VI zal - "Shimoliy Tohariston ilk o'rta asrlar davrida" deb nomlanadi. Bu zalda IV-VIII asrlarga oid bo'lgan topilmalar o'rin egallagan.

⁶⁷ Ўзбекистоннинг энг қизиқарли музейлари: хорижий сайёҳлар орасида ТОП-5 // sputniknews.uz. 2023 йил 17 май.

- VII zal - "Shimoliy Tohariston rivojlangan o'rta asrlar darvida" (IX-XIII asrlar birinchi choragi) deb nomlanib, shu davrga mansub eksponatlar joylashtirilgan.

- VIII zal - "Termiz va Chag'aniyonning Amir Temur va Temuriylar davlati davri madaniyati" (1370 yil XVI asr boshlari) deb nomlanib, shu davrlarga oid arxeologik ashyolar tomoshabinlar e'tiboriga havola etiladi.

- IX zal - "Surhon vohasi XVI – XX asr boshlarida" deb nomlanadi va shu davrga oid bo'lgan moddiy madaniyatimiz durdonalari ushbu zaldan joy olgan.

- Numizmatika ko'rgazma zalida qimmatbaho buyumlar va numizmatikaga oid topilmalar o'rin egallagan.

- Ayvon osti galereyasida yirik hajmdagi eksponatlar joylashgan.

- Kutubxonada 3700 dan ortiq qo'lyozmalar, tarixiy adabiyotlar va badiiy kitoblar mavjud.

Azaldan muzeylarga o'tmish va kelajakni bog'lovchi ko'prik sifatida qaralgan. 2022 yil Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi tashkil etilganiga 20 yil to'ldi. Shu muddatda u Markaziy Osiyodagi eng yirik arxeologiya muzeyi va o'ziga xos ma'naviyat markazlaridan biri sifatida tanildi. Muzey fondi ancha boyigan, ya'ni 110 mingga yaqin eksponatni o'zida jamlagan⁶⁸.

Fransiyaning mashhur Luvr muzeyi esa dunyoning eng yirik hamda boy tarixga ega muzeylari sirasiga kiradi. Muzeydan jahon tarixi, madaniyati, san'atining eng nodir durdonalari o'rin olgan. Sayyohlar oqimi bo'yicha ham eng ko'p turist tashrif buyuradigan manzillardan. Shuningdek, bu muzeyda turli mintaqa va sivilizatsiyalarga oid ko'rgazmalar, madaniyat kunlari, noyob eksponatlar namoyishlari tashkil etiladi.

E'tiborlisi, 2022 yilning 23-noyabr kuni Fransiya'dagi Luvr muzeyida ilk bor O'zbekistonning boy merosiga bag'ishlangan ko'rgazma ochiladi. "O'zbekiston vohalarining xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" deb nomlanuvchi ko'rgazmada O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk ipak yo'li va u bo'ylab qad rostlagan sivilizatsiyalar haqida hikoya qilinadi. Namoyishga qo'yiladigan

⁶⁸ Худойбердиев Р. Лувр музейида Сурхондарё тарихи юз очди // Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 октябр.

eksponatlar davriyligi esa qariyb ikki ming yillik davrni qamrab oladi. Xususan, O'zbekistonning 16 ta muzeyidan 138 dona osori atiq, shuningdek, dunyoning yetakchi muzeylarida saqlanayotgan va O'zbekistonning janubiy hududidan topilgan 31 ta tarixiy ashyo ham namoyish etiladi. Termiz arxeologiya muzeyidan sakkiz dona noyob eksponat ko'rgazmaga qo'yiladi. Birinchisi Budda haykali bo'lib, eramizning I-II asrlariga oid bu eksponatni o'tgan asrning 30-yillari oxirida Termiz tumanidagi Fayoztepa yodgorligidan taniqli arxeolog M.Ye.Masson boshchiligidagi ekspeditsiya topgan.

Ikkinchi eksponat — milodiy II-III asrlarga tegishli binoning me'moriy bezagi oq gips toshdan o'yib ishlangan. Termiz tumani Ayritom yodgorligidan topilgan bu eksponatda yurib ketayotgan fil tasvirlangan. Uning ustida bo'rtma holatda ishlangan yopinchiq bo'lib, old ikki oyog'i to'liq ko'rsatilgan, orqa qismida esa bir oyog'i saqlangan. Eksponatning old qismida bo'rtma shakldagi nilufar guli tasviri ko'zga tashlanadi. Ashyoning yon qismida yana bir filning faqat boshi va oldingi bitta oyog'i tasvirlangan.

Milodning boshlariga oid ko'pgina yodgorliklarda fil tasvirli peshtoqlar hamda haykalchalar, nilufar guli surati tushirilgan noyob ashyolar uchraydi. Bu ham o'z davrida Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari bilan mushtarak madaniy aloqalar o'rnatilganini isbotlaydi. Luvr muzeyidan joy olishi kutilayotgan ashyolardan yana biri — Eski Termiz hududidagi Chingiztepa yodgorligidan topilgan, ikki kishi tasviri tushirilgan barelyef.

Milodiy II-III asrlarga tegishli bu eksponatning to'rtburchak shakldagi yuza qismida dastlab erkak kishi tasviri ishlangan. Ikkinchisi o'ng qo'lida gul ko'targan ayol bo'lib, qulog'iga katta sirg'a taqilgan. Nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham milodning V-VII asriga oid mashhur Bolaliktepa devoriy suratlari haqida yaxshi bilishadi. Maktab darsliklarida ham o'quvchilarga bu mavzuda ma'lumot berilgan. Bolaliktepa mahalliy katta yer egasining ko'shki - qarorgohi vazifasini bajargan. Mazkur ko'shkning markaziy xonalaridan biri devorida bazm marosimi aks etgan devoriy suratlarni ko'rish mumkin. Tasvirlarda 40 dan ortiq odam qiyofasi o'sha davrning mohir rassomlaridan biri tomonidan nozik ifodalar bilan chizilgan.

Suratning yuza qismida restavratsiya va konservatsiya ishlari olib borilgan. Termiz arxeologiya muzeyida namoyishga qo'yilgan eksponatlar orasida ayollarning turli davrlarga oid taqinchoqlari, bilaguzuklar, surmadonlar, munchoqlar, oynalar salmoqli o'rin egallaydi.

Mazkur muzeyda turfa tarixiy davrlarni o'z ichiga olgan 9 ta zal mavjud bo'lib, ikkinchi zalda Surxon vohasi hududidan topilgan tosh va bronza davriga oid noyob topilmalar qo'yilgan. Luvrda ko'rgazmaga qo'yilishi kutilayotgan eksponatlar orasida miloddan avvalgi III va milodiy I asrlarga oid ayollar shoda munchog'i hamda bronza oyna ham bor. Termiz arxeologiya muzeyi eksponatlari orasida yana ikkita eksponat Fransiya muzeyiga qo'yilishi uchun tanlab olingan. Ular X-XII asrlarga doir eksponatlardir⁶⁹.

Bu eksponatlarda o'ziga xos tarzda bezak berish san'ati ifodalangan, islomiy bezakdorlik namunasi qo'llangan. Luvrda O'zbekistonning janubiy hududlaridan topilgan, qariyb 5 ming yillik vaqt davomidagi davrlarni o'zida ifoda etuvchi noyob eksponatlar namoyishi kelgusi yilning bahoriga qadar davom etadi. Bu eksponatlar orqali O'zbekistonning shonli, buyuk tarixi dunyoga qayta yuz ochib, sayyohlar oqimi yanada ortishida davom etaveradi.

AQSHning Filadelfiya shahrida joylashgan "Theoretical & Applied Science" (Nazariy va amaliy fanlar) nomli Xalqaro ilmiy jurnalda Termiz arxeologiya muzeyi numizmatika fondi to'g'risida maqola chop etildi. AQSHning Filadelfiya shahrida joylashgan "Theoretical & Applied Science" (Nazariy va amaliy fanlar) nomli Xalqaro ilmiy jurnalda Termiz arxeologiya muzeyi numizmatika fondi to'g'risida maqola chop etildi. Har oyning so'ngida nashr etiladigan mazkur xalqaro ilmiy jurnal 45 dan ortiq xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi asosida tashkil etilgan.

Ma'lumot uchun, bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyi fondida 28 mingdan ortiq turli davrlarga oid tangalar saqlanadi⁷⁰. Shulardan 12 mindan ortigi

⁶⁹ Худойбердиев Р. Лувр музейида Сурхондарё тарихи юз очди // Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 октябр.

⁷⁰ Termiz arxeologiya muzeyi Amerika jurnalida yoritildi // yuz.uz. 2020 yil 14 avgust.

aynan Amir Temur va temuriy hukmdorlar tomonidan Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida zarb etilgan tangalar hisoblanadi.

O'z tarixida xitoy, hind, yunon, islom madaniyatini uyg'unlashtirgan Surxondaryo, 3500 yil oldin yashagan ayol qabri, 15 asr oldin tikilgan paxta ko'ylak, Aleksandar Makedonskiydan qolgan shahar, Termiz shahri fuqarosiga aylangan yapon olimi... 100 mingdan ortiq eksponat va artefaktlarni o'zida jamlagan, O'zbekistondagi yagona Termiz arxeologiya muzeyi hisoblanadifasda aylanib chiqib bo'lmaydi. Qadimgi va yaqin o'tmish tarixidan ma'lumot beruvchi artefaktlarni ko'zdan kechirib chiqish uchun kamida 2 soat vaqtingizni sarflaysiz.

Shri-Lankaning bodxi daraxti Surxondaryoda. 2017 yilda Termiz shahrining Qizil Sharq ko'chasidagi uylarning biridan bodxi daraxti barglari shakli bilan ishlov berilgan kapitel (bu ustunlarning bezak qismi) topiladi. Bodxi buddaviylik dinida muqaddas sanalgan daraxt bo'lib, uning ostida Budda o'tirgan. Muzeyda bodxi shakli tushirilgan ko'plab artefaktlarni uchratish mumkin. Bu daraxt Shri-Lankaning Anuradxapura shahrida hozirgacha saqlanib qolgan. Ma'lumot uchun, O'zbekiston-Shri-Lanka orasidagi masofa qariyb 4 ming kmni tashkil qiladi. eramizning ilk asrlarida bu hududlarga buddaviylik dini Hindiston tarafdin kirib keladi va keyinchalik bu yerdan Xitoy tarafga qarab yoyiladi. Shu sababli muzey artefaktlari orasida kichik o'yinchoq kattaligidan 2-2,1 metrgacha bo'lgan ko'plab Budda haykallari bo'laklarini ko'rasiz. Arab istilosi davrida barcha Budda ibodatxonalari va haykallarining boshlari buzib tashlangan. Shu sababli ular boshsiz holatda saqlanib qolgan.

Termiz shahridan unchalik uzoq bo'lmagan manzilda Fayoztepa yodgorligi bor. Qadimgi ibodatxona vazifasini o'tagan maskanda mahalliy o'troq aholi diniy urf-odatlarini amalga oshirgan. Arxeologlar qazishma ishlar chog'ida maskandan o'rta hajmli Budda haykali (eramizning I-III asrlariga oid), uy anjomlari va oshxona jihozlari, kundalik turmushda kerak bo'ladigan ashyolar topishgan. Quyidagi tosh hovuz ham Fayoztepadan topilgan bo'lib, bu hovuz suvga to'ldirilib, uning atrofida diniy marosimlar o'tkazilgan. Fayoztepa yodgorligi buddistlar uchun ziyorat

qiladigan muqaddas joy bo'lgan. Hatto hozirgacha tibetliklar Fayoztepani ziyorat qilish uchun kelib turishadi.

Hududdagi madaniyatlar qorishuvini shundan ham bilsa bo'ladiki, tosh hovuz buddaviylarniki bo'lsa-da, unda tasvirlangan afsonaviy qush Grifon esa yunon mifologiyasidan olingan. Grifon - boshi sher, tanasi esa qushniki kabi tasvirlangan.

Yetakchi arxeologlarning fikricha, hozirgi O'zbekiston hududida zamonaviy qiyofadagi odamlar Boysun tumanining Teshiktosh g'orida topilgan. Bu mil. avv. 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. 8-9 yoshli neandertal bolaning bosh suyagi 1938 yilda topilgan. Bu suyak Osiyoda topilgan birinchi neandertal qoldig'idir. 1939 yilda antropolog Mixail Gerasimov tomonidan uning byusti yaratilgan. Muzeydagi byust haykalning nusxasi bo'lib, uning asl nusxasi sobiq ittifoq davrida mamlakatdan olib chiqib ketilgan, hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanadi⁷¹.

Sheroboddagi 100 gektar yerda mil. avv. 15-14 asrga tegishli Jarqo'ton shahar qoldiqlari topilgan. Muzey xodimiga ko'ra, bu Surxondaryo vohasida paydo bo'lgan ilk shahar bo'lgan. Shaharning 20 ga yerida topilgan 3000 ta qabr arxeologlar tomonidan ochib o'rganilganda, bronza davrida odamlar ona qanday g'ujanak holatda yotsa, xuddi shunday holatda erkaklarni o'ng, ayollarni esa chap tarafga yotqizib, shaxsiy buyumlari, ovqatlar bilan dafn qilishgan.

Tarixiy shaharlar. Navbatdagi eksponat miloddan avvalgi 17-15 asrga oid Sopollitepa yodgorligidan 8 ta mahalla va ko'plab labirintlar topilgan. Shaharga kirishdagi bu labirintlar ayrim arxeologlar tomonidan dushmanlarni chalg'itish uchun barpo qilingan deyilsa, boshqalar ulardan don saqlash ombori sifatida foydalanilgan, deyishadi.

Hozir ham ayrim marosimlarda saqlanib qolgan olov ishtirokidagi marosimlar bundan 3500-3000 yillar oldingi udumlardan qolib ketgan.

Makedonskiy Surxondaryo hududida. "Miloddan avvalgi 329 yilda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy bu hududlarga bostirib kiradi va Baqtriya

⁷¹ Усманий С. Македонский тангаларидан Бухоро амири коғоз пуллариғача – Ўзбекистондаги ягона археология музейидан фоторепортаж // kuz.uz. 2023 йил 3 апрел.

hokimining qizi Roxshanakka uylanadi. U shimoliy-g'arbiy Hindistonga yurish qiladi va 33 yoshida kasallikka chalinib, vafot etadi. Vafotidan so'ng uning tansoqchisi Salavka Salavkiylar imperiyasiga asos soladi va bu imperiya ushbu hududlarda 70 yil hukmronlik qiladi". Undan keyin esa Diodot Yunon-Baqtriya podsholigi imperiyasiga asos soladi va bu imperiya voha hududlarida 115 yil hukmronlik qiladi⁷².

1933 yilda chegarachilar tomonidan Amudaryo suvlari ichidan ushbu Ayritom frizining (milodiy 1-3-asrlar) asl nusxasi topib olinadi. Va o'sha yili bu friz arxeolog Mixail Masson tomonidan Leningradga (hozirgi Sankt-Peterburg) olib ketiladi va shu bilan o'sha yerda qolib ketadi.

Hozirda uning asl nusxasi ham Sankt-Peterburdagi Ermitaj muzeyida saqlanadi. Bu eksponat esa uning nusxasi. Unda bodxi daraxtlari orasidagi musiqachilar tasvirlangan.

Termiz arxeologiya muzeyida Fransiyaning Ekol Normal Supermer universitetining Sharq va G'arb arxeologiya va filologiya laboratoriyasi arxeologi Segolen de Pontbriand bilan arxeologiya muzeyi ilmiy xodimlari o'zaro tajriba almashti. Segolen de Pontbriand Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Frantsuz instituti (IFEAC)ning Termiz arxeologiya muzeyida 3 oylik malaka oshirish granti sohibasi hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi kunda Segolen de Pontbriand Frantsiya Tashqi ishlar vazirligi moliyalashtirgan o'zbek-frantsuz arxeologik ekspeditsiyasi rahbaridir. O'zbek-frantsuz arxeologik ekspeditsiyasi 1993 yildan hozirgi kunga qadar faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Bu ekspeditsiyaga dastlab Fransiyaning Ekol Normal Supermer universitetining Sharq va G'arb arxeologiya va filologiya laboratoriyasi ilmiy direktori P'єr Lerish rahbarlik qilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda Segolen de Pontbriand rahbarlik qilib kelmoqda. Shu o'tgan davr mobaynida bu ekspeditsiya bir qator yodgorliklarda jumladan: Eski Termiz hududida,

⁷² Усманий С. Македонский тангаларидан Бухоро амири коғоз пулларигача – Ўзбекистондаги ягона археология музейидан фоторепортаж // kuz.uz. 2023 йил 3 апрел.

Chingiztepa-1 ning Shahrison Qo'rg'on qismida hamda Chingiztepa-2 saroyning dahliz qismlarida arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan⁷³.

2018 yilda ekspeditsiya faoliyati 15 iyundan 15 iyulgacha davom etdi. Unda Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimlari, Termiz davlat universitetining tarix fakulteti talabalari ham amaliyot o'tadi. Ekspeditsiya tomonidan voila arxeologik yodgorliklarida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida topilgan ashyolar Termiz arxeologiya muzeyiga topshirilib, muzey fondi boyitib borilmoqda.

2018 yil 14 sentyabr Termiz Arxeologiya muzeyida Frantsiyaning Ekol Normal Supermer universitetining Sharq va G'arb arxeologiya va filologiya laboratoriyasi arxeologi Segolen de Pontbriand va Termiz Arxeologiya muzeyi ilmiy xodimlari bilan o'zaro tajriba almashishdi. Shu yilning 25 sentyabrida Termiz Arxeologiya muzeyiga Parijdagi Luvr muzeyining "Islom madaniyati" bo'limi boshlig'i Yanik Lindts, muzey xodimi Rokko Rante keldi. Luvr muzeyi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi o'rtasida o'zaro ilmiy hamkorlik qilish va xalqaro ko'rgazmalar tashkil etish bo'yicha shartnoma imzolandi. Luvr muzeyi ilmiy xodimlarining Termiz Arxeologiya muzeyiga tashrifidan asosiy maqsad 2020-2021 yillarda Luvr muzeyida O'zbekiston tarixi va Islom davri arxeologiyasiga oid xalqaro ko'rgazma tashkil etish rejalashtirildi. Ushbu ko'rgazmaga O'zbekiston muzeylarida ekspozitsiyaga qo'yilgan va zahira fondlarida saqlanayotgan eksponatlarni ilmiy tadqiq etgan holda Luvr muzeyida tashkil etiladigan xalqaro ko'rgazmaga eksponatlarni saralash ishlari rejalashtirildi. Rejaga muvofiq Luvr muzeyi ilmiy xodimlari tomonidan Termiz Arxeologiya muzeyidagi noyob eksponatlar ilmiy tadqiq etildi. O'zbekistondagi Germaniya elchixonasining 1-kotibi Novak, Mannxeym shahri muzeyi xodimlari va Gunvor Lindstrum ishtirokidagi guruh a'zolari bilan Termiz Arxeologiya muzeyi ma'muriyati "Buyuk Aleksandr va Osiyo madaniyati" mavzusida amaliy uchrashuvlar va muloqotlar olib bordi. Uchrashuv chog'ida muzeyda xalqaro

⁷³ Франциялик археолог Термиз археология музейига ташриф буюрди // daryo.uz. 2018 йил 14 сентябр (Мурожаат этилган сана: 2024 йил 10 март)

ko'rgazmaga tanlab olingan 67 ta eksponat 2009 yil 2 noyabrdan 2010 yil 10 fevralgacha Germaniya Federativ Respublikasining Mannxeym shahri Reiss-Engelxorn muzeylarida “Buyuk Aleksandr va Osiyo madaniyati” xalqaro ko'rgazmasida qatnashdi ⁷⁴.

Muzey ekspozitsiyasida Sopollitepadan topilgan marjonlar alohida o`rin egallaydi. Sopollitepa yodgorligining uy-joy majmualari ostidan ochib o'rganilgan qabrlardan va xona devorlarining madaniy qatlamlaridan topilgan quyidagi turdagi taqinchoqlar haqida ma'lumot berib o'tgan: 10 ta marjon-munchoqlar shodasi; 20 ga yaqin munchoqlar donasi; bilaguzuklar (34 ta namuna); to'g'nog'ichlar (29 ta namuna); tumorlar (39 ta namuna); sirg'alar (25 ta namuna); diadamlar (3 ta namuna). Sopollitepa yodgorligi XX asrning 60-yillaridan beri o'rganilayotgan bo'lsada, yangi topilayotgan arxeologik manbalar zargarlik san'ati buyumlarini chuqurroq o'rganish masalalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, keltirilgan tadqiqotlarda taqinchoqlarning vazifasi, tipologiyasi va ilmiy ahamiyati to'liq yoritilmagan. Sopolli madaniyating bronza davri yodgorliklaridan topilgan taqinchoqlarni o'rganish, ularning vazifasini aniqlash, tipologiyasini yaratish va arxeologik, tarixiy manbalar asosida qiyosiy o'rganish bronza davri aholisining o'ziga xos etnografik, moddiy-ma'naviy va diniy xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. 1969-1974 yillarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Sopollitepaning uy-joy majmualari ostidan 138 ta qabrlar topib o'rganilgan va ushbu qabrlarning 29 tasidan metall va tosh buyumlar topilgan. 29 ta qabrdan 23 tasi ayol kishiga tegishli qabrlar bo'lsa, 6 tasi (№ 22; № 54; № 85; № 89; № 110; № 115) erkak kishiga tegishli qabrlar hisoblanadi.

Ayollar qabrlari metall va qimmatbaho toshlardan yasalgan zeb u ziynat buyumlari va pardoz ashyolariga boyligi bilan alohida ajralib turadi (Askarov, 1977. S. 42). Sopollitepadan topilgan zargarlik buyumlarining asosiy qismini marjonlar tashkil qiladi. Ular asosan qabrlardan topilgan, biroq ayrimlari yodgorlik madaniy qatlamidan ham topilgan. V.V. Luneva (Luneva, 2009. S. 21-25) va N.A.

⁷⁴ Хосиятов Х.О. Жанубий Ўзбекистон музейларида халқаро ташкилотлар ва хорижий мамлакатлар билан ўзаро алоқалар // История и культура Центральной Азии. – 2023. – № 1. – С.509-512.

Avanesova (Avanesova, 1991. S. 62-67) kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida marjonlar, munchoqlar va shokilalar bo'yin uchun mo'ljallangan taqinchoqlar sinfiga kiritilgan. Bo'yin va ko'krakka taqiladigan taqinchoqlar sinfi uchta guruhga bo'lingan: birinchi guruh – shokilalar; ikkinchi guruh – munchoqlar; uchinchi guruhga uch turdagi taqinchoqlar kiritilgan: marjon, jevak, ko'krakka oid taqinchoqlar⁷⁵.

Sopollitepa yodgorligining 118 – qabridan 1 ta, 81 – qabridan 1 ta, 82 – qabridan 1 ta, 93 – qabridan 1 ta, 18 – qabridan 4 ta, 41 – qabridan 1 ta, jami 10 ga yaqin marjon – munchoqlar shodasi va bundan tashqari 53 – xonadan 1 ta, 37 – xonadan 3 ta, 41 – xonadan 1 ta, 26 – xonadan 2 ta, 4 – xonadan 1 ta, 6 – xonadan 1 ta, xona devorining madaniy qatlamidan esa 6 ta, jami 15 ta alohida munchoq donasi topilgan (Askarov, 1973. S. 168. Tabl. XXX, 1-16; Avanesova, 1991. C. 16; Askarov, 1977. S. 142, 206-207. Tabl. XLII, 1, 2; XLIII, 1, 2). Marjonlar turli xil qimmatbaho tosh (lyapis-lazurit, serdolik, aqiq, oniks, rubin, xaltsedon) va mineral (ohaktosh, marmar, kvarsit, zmeevik) lardan yasalgan. Marjondagi munchoqlar yasaliş shakliga qarab, quyidagi turlarga ajratgan: silindr, ellips, romb, bikonik, disk, oval, xoch, shar, to'rtburchak va zoomorfik va antropomorfik shaklli (haykal, tasvir va figura) (Askarov, 1973. C. 95). V.V. Luneva tadqiqotida Sopollitepadan topilgan marjonlar munchoqlarning joylashish tartibiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'lingan: oddiy marjonlar; murakkab (kompozitsion) tarkibli marjonlar.

Sopollitepa yodgorligidan jami 10 ga yaqin marjonlar topilgan bo'lib, ular munchoq, shokila va tumorlarning joylashish tartibiga qarab oddiy va murakkab (kompozitsion) tarkibli marjonlarga bo'linadi. Oddiy marjonlar miqdor jihatdan murakkab tarkibli marjonlardan ustunlik qiladi. Murakkab tarkibli marjonlar boy qabrlardan topilgan bo'lib, asosan, lazurit, serdolik, aqiq, feruza, xaltsedon, xlorit va nefrit kabi qimmatbaho va yarimqimmatbaho toshlardan yasalgan. Bundan ko'rinib turibdiki, marjonlar egasining mavqeini, qaysi tabaqaga mansubligini ham

⁷⁵ Каттаева Г.Ч. Сополлитепа маржонлари тўғрисида мулоҳазалар // Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, ananalar va innovatsiyalar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 3-kitob. – Toshkent, 2023. – B.78-79.

ko'rsatib turgan. Ushbu toshlar inson uchun faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'lik, inson ruhiyati uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda yodgorlikdan topilgan marjonlar Respublikamizning turli hududlarida joylashgan davlat muzeylarining eksponatlar fondida saqlanmoqda. Ularni yagona muzey fondi bazasida yig'ish yoshlarimiz ongida ushbu yodgorlik taqinchoqlari haqida umumiy tushuncha uyg'otishga, ajdodlarimizning turmush tarzini, madaniyatini, san'atini, hamda urf-odatlarini haqida tushuncha uyg'otishga xizmat qiladi.

2.2. Janubiy vohalarda arxeologik parklarni tashkil etish istiqbollari

Arxeologik park – bizga xorijiy tajribadan kelib chiqqan hodisa bo'lib, hozirda u muzey muhitida mashhur bo'lib bormoqda va mamlakatimizda juda kam namoyon bo'lmoqda, chunki bu bosqichda u juda ziddiyatli shakl hisoblanadi. Ixtisoslashgan adabiyotlarda "Arxeologik park" tushunchasi tez-tez tilga olinishiga qaramay, hozirgi vaqtda ushbu tushunchaning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas⁷⁶.

Arxeologik parkning eng "radikal" shakli bu arxeodrom yoki eksperimental arxeologiya parki, "arxeologik Disneylend". Arim ekspertlar bu shakllarni tenglashtiradilar, ammo bizga bu vaziyatda ma'lum farqlar mavjuddek tuyuladi. Aynan arxeodrom ko'p jihatdan keng ko'lamli rekonstruksiya, eksperimental aholi punktlarini yaratishga asoslangan va "ijtimoiy yo'naltirish" strategiyasiga muvofiq dasturlarni taklif qiladi. Arxeologik parkning uchun meros yo'nalishi ustunlik qiladi va rekonstruksiya hamda tarixiy modellashtirish ikkinchi darajali ahamiyatga ega va faqat yodgorlikka nisbatan illyustratsiya sifatida xizmat qiladi. Arxeo bog'lar va arxeodromlar tashrif buyuruvchilarga arxeologik ishlar natijalariga asoslangan ilmiy eksperimentlarda ishtirok etish yoki ularga guvoh bo'lish imkoniyatini taklif qiladi — bu o'tmishdagi turli ishlab chiqarish jarayonlarini (kulolchilikda, uy-joy qurilishida, kiyim-kechakda qo'llaniladigan takroriy asboblarni tayyorlash

⁷⁶ Yarkulov A.A. Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlar. – 2023. – № 1. – B.316.

hamda ishlatish va boshqalar) rekreatsiyadir). Masalan, Tomsk Pisanitsa muzey-qo'riqxonasi arxeodromining bir qismi bo'lgan "Tirik arxeologiya" ko'rgazmasi tashrif buyuruvchilarni o't ochishga yoki kamondan o'q otishga harakat qilishga taklif qiladi. Oltoydagi "Dunyolar chorrahasi" arxeologik bog'ida xodimlar "Tosh davriga 25 qadam" eksperimental maydonchasini yaratishga muvaffaq bo'lishdi, u yerda "qadim zamonlardan hozirgi kungacha Sibir xalqlari tomonidan ishlatilgan turli xil tuzoqlar" rekonstruktsiya qilingan⁷⁷. Arxeologik bog'lar o'z faoliyatida tashrif buyuruvchilar bilan muloqot qilishning interaktiv shakllaridan keng foydalanmoqda.

O'zbekiston arxeologik merosi obyektlarining soni bo'yicha jahondagi yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Bugunga qadar aniqlangan arxeologiya merosi obyektlari 4748 tani tashkil etadi. Bularni muhofaza qilish, saqlash va namoyish qilish muammolari dolzarbligicha qolmoqda. Dunyo tajribasiga ko'ra, arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilishning eng samarali usuli bu ularni muzeylashtirishdir. Qadimshunoslik merosi obyektlari muzeylashtirishning bir necha turlari mavjud bo'lib hisoblanadi. Bulardan biri arxeologiya parklari yaratishdir.

Arxeologik merosni talqin qilishning yangi yo'nalishlari — ko'ngilochar texnologiyalardan ("jonli tarix", "chuqur turizm", "eksperimental arxeologiya") foydalanish bilan faol o'zaro ta'sir qilish orqali idrok yetishga asoslangan yo'nalishlar. Arxitektura arxeologiya meros obyektlarining ekologik (yoki landshaft) ekspozitsiyalarini yaratishning asosiy vositalaridan biridir. Muzey arxitekturasi tarixiy makon va vaqtni taqlid qilib, yodgorliklarni saqlash va namoyish qilish uchun fazoviy qobiq yaratadi. Ekspozitsiya yaratishda yana bir me'moriy vazifa — makonni syujetli tashkil etish va ekspozitsiya tsenariysini ishlab chiqishdir.

Arxeologiya yodgorliklarni arxeologiya parki yoki muzeyga qaytadan o'zgartirish orqali saqlab qolishning ajoyib usuli bo'lib, xususan tarixiy-madaniy

⁷⁷ Yarkulov A.A. Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlar. — 2023. — № 1. — B.317.

merosni muzeylashtirish dasturini amalga oshirishda atrofdagi tabiiy muhitdan ham foydalanish mumkin. O'zbekiston sharoitida arxeologik parklarini yaratishda ularning qanday ko'rinishga ega ekanligi, qaysi davrga taalluqliligi, landshafti va o'rganilganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda obyektning har bir qismi haqida tasavvur hosil qilish uchun uning barcha tarkibiy qismlarida qazishmalar o'tkazilib, ochib qo'yilishi lozim. Ochilgan qazishmalar konservatsiya qilinib, namoyishga tayyor holga keltirilishi hamda artofi to'siqlar bilan to'sib qo'yilishi kerak bo'ladi. Qazishmalar yoki namoyish etiladigan joyga olib borilagan yo'laklar ham barpo etilishi va ularni arxeologiya parki mavzusiga mos ravishda joylashtirish lozim. Arxeologiya parklarini odatda tarixiy shaharlarning arxeologiya merosi obyektlari saqlanib qolgan qismlarida barpo etiladi. Bunda ularning saqlanib qolgan yoki aniqlangan qismlarini konservatsiya va qisman rekonstruktsiya qilish asosida arxeologiya parklariga aylantiriladi. Arxeologik meros obyektining qismlarini konservatsiya qilishda uning asl yoki unga yaqin bo'lgan materiallardan foydalanilishi kerak. Arxeologik merosi obyektini u haqida ma'lumotlar yetarli bo'lganda to'liq rekonstruktsiya qilinishi lozim. Ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda esa, qisman rekonstruktsiya qilish kerak bo'ladi. Arxeologik merosi obyektini maketini yaratishda esa ilmiy xulosalardan keng foydalangan holda taxminiy ko'rinishi yaratilishi mumkin bo'ladi. Maket obyekt haqida tasavvur hosil bo'lishi uchun dastlabki qadam bo'ladi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Janubiy O'zbekistonning yodgorliklari ham arxeologik parka aylantirishga munosib. Ularning qurilishi, loyihasi, mudofaa inshootlari, me'morchilik uslubi va texnologiyasi har bir tashrif buyuruvchini hayratda qoldirishi shubhasiz.

Yodgorlikning qal'a qismi kvadrat shaklida bo'lib, maydoni 82x82 m, atrof uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlarning qalinligi 2 m.dan ortiq. Devorlar murakkab me'moriy reja asosida qurilgan. Qadimgi muhandislarning g'oyasiga ko'ra, dastlab mudofaa tizimi tuzoq usulida ishlangan bo'lib, aniq o'lchamdagi koridorsimon bloklarga bo'lingan. Tashqi bloklar dahliz

tipidagi xonalar orqali ichkaridagi uy-joy komplekslari bilan birlashtirilgan. Ichki bloklar mudofaa tizimida qalqon rolini o'ynagan. Tashqaridan qaraganda go'yo ular qal'a ichiga olib kiruvchi darvozalarni eslatadi. Ular kvadrat shakldagi qal'aning har tomonida bittadan joylashgan. Aslida qal'aga kirish darvozasi bitta, qalaning janubiy tomonida joylashgan.

Qazishmalar davomida olib borilgan stratigrafik kuzatuvlarga ko'ra, uy-joy komplekslari uchta xronologik qurilish bosqichlaridan iborat ekanligi aniqlangan. Mudofaa tizimini tashkil etgan ichki va tashqi bloklar aslida maxsus mudofaa maqsadida qurilgan bo'lsada, Sopollitepaning keyingi bosqichlarida ulardan har xil maqsadlarda (urug' xilxonasi, uy-joy xonalari, kulolchilik ustaxonalari) foydalanilgan. Rejaga ko'ra, qalaning ichki maydoni bir-birlaridan tor ko'chalar bilan ajratilgan 8 ta uy-joy komplekslaridan iborat bo'lgan. Bu uy-joy komplekslarining alohida bir urug' – jamoasining turar-joy massivi sifatida shakllanishi Sopollitepada kuzatilgan uchta qurilish davri davomida yuz berganligi kuzatilgan. Dastlab uy-joy komplekslari qal'a ichki devoriga yopishtirib qurilib, kuzatilgan uchta qurilish davomida ular qal'a markaziy maydoni bilan bog'langan tor ko'chalar bo'ylab kengayib borgan.

Yodgorlikning bizgacha yetib kelgan tarixiy topografyasiga ko'ra, u ikki qismdan iborat: mudofaa devorlari bilan o'ralgan ko'xandiz, unga tutashib ketgan "shahriston" maydoni. Ularning janubida, qadigi ariq izining orqa tomonida, bir necha tabiiy tepaliklarga joylashgan nekropol (qabriston) joylashgan. Shahriston maydonida 20 ga yaqin katta va kichik hajmdagi tepaliklar kuzatiladi. Ular ustida yotgan sopol parchalari, tosh yorg'uchoq va boshqa mehnat qurollarining sochilib yotishiga qaraganda, ularning har biri bir urug' jamoasiga tegishli uy-joy qoldiqlari ekanligidan guvohlik berar edi⁷⁸.

Jarqo'ton arki. Jarqo'ton yodgorligining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan tepalik tadqiqotchilar tomonidan «ark» deb atalgan. U topografik jihatdan boshqa

⁷⁸ Yo'ldoshev I. Bronza davri arxitekturasida (Sopollitepa misolida) // Жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти» халқаро ажуман илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2024. – В.77.

tepaliklardan ajralib turadi. Uning umumiy maydoni 3 gektar bo'lib, T.Sh. Shirinov o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, atrofi 1,20-1,50 metr qalinlikdagi mudofaa devori bilan o'ralgan. Ichki qismi esa kichik tepaliklar majmuasidan iborat. Arkda keng ko'lamli arxeologik izlanishlar olib borilgan. 1975 yilda «ark»ning g'arbiy qismida A.A. Asqarov tomonidan qazilgan stratigrafik shurf natijasida Sopolli madaniyati ashyolari bilan birga Kuchuk I davriga oid sopollar majmuasi ham topilgan.

T.Sh. Shirinov tomonidan arkning g'arbiy qismida saroy, janubisharqiy va sharqiy qismlarida arkning mudofaa devori ochib o'rganilgan. O'zbekiston - Germaniya ekspeditsiyasi tomonidan so'nggi yillarda Jarqo'ton arkining to'rtta joyida qazish ishlari olib borildi. Asosiy maqsad - arkning umumiy qurilish uslubini aniqlashdir. Negaki, T.Sh. Shirinov tomonidan o'rganilgan saroy faqat Jarqo'ton davriga oid bo'lib, so'nggi (Ko'zali, Mo'lali) davrlarda saroy qaerda bo'lgan degan savolga javob izlashdan iborat bo'ldi.

Jarqo'ton arkining mudofaa devorlari - fortifikatsiya masalasi ham, bizning fikrimizcha, o'z yechimini topishi zarur. Eslab o'tganimizdek, Jarqo'ton arki 1,20-1,50 metr qalinlikdagi devorlar bilan o'ralgan. Ark ichida joylashgan saroy esa 4,5 metrlik devorga ega ekanligi T.Sh. Shirinov tomonidan aniqlangan³. Jarqo'ton arkini o'rab turgan devor fortifikatsiya vazifasini bajarganmi yoki Janubiy Turkmaniston eneolit davri yodgorliklaridagi singari sovuq shamollarga to'siq vazifani bajarganmi degan savollar o'z yechimini topishi kerak. Shu maqsadlarda arkda qazish ishlari davom ettirildi. Arxeologik qazish ishlari arkning sharqiy, janubiy va markaziy qismlarida olib borildi.

Jarqo'ton arkining sharqiy qismida olib borilgan qazishmalar natijasida 4 ta xonadan iborat oila yashagan uy qoldig'i ochildi. Bu uy bitta qurilish davridan iborat bo'lib, Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichiga oid. Xonalari uzunchoq - koridorsimon shaklda. Uy devorlari xom g'ishtdan terilgan (58x24x14; 62x30x17 sm). Devorlar balandligi 0,20 metrdan 1,20 metrgacha saqlangan. Uyning pollari somon suvoq bilan shuvalgan, ayrim joylariga - eshik atroflariga tosh to'shalgan. Uyning umumiy ko'rinishi to'g'ri to'rt burchak shaklli bo'lib, burchaklariga me'moriy tirgaklar (kontrfors) qurilgan. Uyning umumiy uzunligi 16 metr, eni 10,5

metr. Ochib o'rganilgan uyning ikkita xonasi oddiy yashash xonalaridan iborat bo'lsa, № 4 xona qolgan xonalarni bog'lovchi – dahliz (koridor) vazifasini bajargan. Barcha xona eshiklari mana shu xonaga chiqadi. E'tiborga molik № 1 xona bo'lib, ko'lami jihatidan boshqa xonalardan katta, faqat mana shu xonada sandal-o'choq, alohida qurilgan sufa joylashganligiga qarab ushbu xonani kichik patriarxal oilaning ijtimoiy xonasi yoki uyning mehmonxonasi deb ta'riflash mumkin. Uyning xo'jalik o'choqlari alohida joyda, uyning sharqiy devoriga taqab qurilgan. Bu yerda bitta xo'jalik o'chog'i va tosh to'shalgan hovli ochildi. Qazishmaning shimol tomonida shu uyning ehtiyojiga mo'ljallangan kichik xumdon ham topildiki, bu me'moriy kompleks Jarqo'ton davrida yashagan kichik patriarxal oilaning mustaqil hayot kechirganligini ko'rsatadi. Topilmalar orasida eng e'tiborga molik ashyo, bronzadan ishlangan pichoq dastasi bo'lib, uning gulgumlari temirdan yasalgan. Tarix fanida A. Gyottse va E. Larosha kabi xettolog olimlarning izlanishlaridan so'ng temirning paydo bo'lishi to'g'risida yangi fikrlar paydo bo'ldi. Xett yozuvlari shuni ko'rsatmoqdaki, xettliklar temirdan har xil taqinchoqlar, xudo haykallari va diniy marosimlarda ishlatiladigan har xil buyumlarni yasaganlar. Xettliklar meteorit va qazilma temirlardan foydalanishgan. Bu fikrni Aladja-Xuyuk yodgorligidan topilgan temir qilichning metallografik analizi isbotlaydi⁷⁹.

Jarqo'tonning Arkiga kirish darvozasi uning janubida bo'lib, undan ark markaziy qismiga tomon ketgan pastlik, ya'ni ko'cha kuzatiladi. Ark darvozasidan boshlangan yo'l aslida markaziy yo'l bo'lib, u taxminan 25-30 metr masofada g'arbga tomon burilgan, xuddi o'sha joydan pastlik - yo'lning sharqqa tomon ketgan ikkinchi tarmog'i kuzatiladi. Bino tashqi devorining qalinligi 4 m. Devor tashqi tomondan 13 ta kvadrat shaklda qad ko'targan mudofaa burjlari bilan mustahkamlangan. Binoga kirish darvozasi uning janubiy devorining qoq o'rtasiga, ikkita burj oralig'ida joylashgan.

⁷⁹Шайдуллаев Ш.Б.Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида): тарих фанлари доктори даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. - Б.114.

Hukmdor qasri ichidagi jonalar juda oddiy, ular tashqi devor osti bo'ylab joylashtirilgan. Saroyning o'rta qismida esa yaqin 20 kvadrat metrni joyni egallagan supa borligi aniqlandi⁸⁰.

Jarqo'tondan topilgan chilangarlik ustaxonasining sharqiy devori ostida kengligi 70 sm, uzunligi 2,5 m, balandligi 1 m keladigan supa ustida qurilgan 5 ta o'choq topildi. "Metallurgiya zavodi" deb atayotgan joydan bir-biriga yaqin qilib qurilgan 2 ta ikki yarusli doirasimon metall eritish pechlari ochildi. Birinchi pechda uning aylanasi bo'ylab 7 ta, ikkinchi pechda esa 5 ta o'choq qoldiqlari topildi. Birinchi pech olovxonasining chuqurligi 2 m, kengligi ham shunga yarasha 130x110 sm, ikkinchisidiki chuqurligi 110 sm. Har ikkala pechning olovxonalarida kamida 1 metr qalinlikda kul qatlami saqlangan⁸¹.

Jarqo'tonning shahriston deb atalgan qismi Arki a'lodan janubga tomon cho'zilib ketgan 15 ga yaqin tepaliklardan iborat. Ana shunday tepachalardan 4-5 tasi arkning shimoli-sharqiy tomonida ham qad ko'targan.

O'zbekistonda qadimgi tosh davrini o'rganish ishlari O'zbekiston-Rossiya paleolitchilar guruhi tomonidan yurtimizning janubidagi Boysun tog'larida, O'zbek-Amerika xalqaro ekspeditsiyasi esa Qashqadardagi Angilloq makonida amalga oshirildi va qator yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. 2002-2003 yillarda O'zbekistonda tosh davrini o'rganish bo'yicha xalqaro O'zbek-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi Boysuntog'da ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada, bu yerdan o'rta paleolit davriga oid Amir-Temir 1 hamda o'rta va so'nggi paleolit davriga mansub Teshik-Tosh 2 g'or makonlari ochib o'rganildi. Ushbu tadqiqotlarning natijalari bir qator maqolalar va ilmiy hisobotlarda o'z aksini topgan⁸².

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 2020-2022 yillarda sohani rivojlantirish yo'nalishlari va aniq vazifalar ishlab chiqilib, unga ko'ra, birgina Qashqadaryo viloyati 2022 yil yakuniga qadar 125,8 mlrd. so'mlik 38 ta loyihalarni

⁸⁰ Аскарлов А. Энг кадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б.8.

⁸¹ Аскарлов А. Энг кадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б.9.

⁸² Ражабов А.Ю., Махкамова Н.А. Жанубий Ўзбекистоннинг қадимги тош даври археология ёдгорликларини ўрганилиш тарихи // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎЗР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.16.

amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu mablag'larning 46,4 mlrd. so'm tashabbuskorlar va 79,4 mlrd. so'mi bank krediti hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish orqali 435ta yangi ish o'rinlari yaratiladi⁸³.

Turizm (sayyohlik) tarmog'i jahon iqtisodiyotining tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Sayyohlik sohasida taraqqiyotga erishgan ba'zi mamlakatlarning asosiy daromad manbai ham aynan turizm hisoblanadi. Mamlakatimiz ko'plab sohalar kabi turizm sohasida ham katta imkoniyatlarga ega davlat. O'zbekistonda turizm sohasining 10 ga yaqin turi mavjud bo'lib, ular orasida madaniy (tarixiy shaharlar va madaniy yodgorliklarni ziyorat qilish) turizm yetakchilar qatorida turadi.

Arxeoturizm yoki arxeologik turizm - bu madaniy turizmning bir turi bo'lib, uning maqsadi arxeologiyaga va tarixiy obidalarni saqlash va ularga bo'lgan qiziqishni oshirish hisoblanadi. Arxeologik turizm amaliy arxeologiyani qo'llash sohaları qatoriga kiradi va unda jamoatchilik ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Arxeologik turizmning asosiy maqsadi tarixiy va qadimiy yodgorliklarni qadimiylik qiyofasini saqlab qolish va ularga bo'lgan qiziqishni oshirish, jamoatchilik orasida madaniy merosga nisbatan iliq fikrlarni shakllantirishdir⁸⁴. Arxeologiya va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qadimiy tarixga ega bo'lib, olimlarning tahminicha u Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Arxeologik turizm ixtisoslashgan soha sifatida madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish sohasidagi masalaning ahamiyatini ko'rsatuvchi xususiyat va funksiyalarga ega. Arxeologik turizm insonlarni madaniy meros bilan tanishtiradi va insonlarda madaniy merosga bo'lgan nauqai nazarni o'zgartiradi. Arxeologiyani turizm bilan bog'lash ham davlat iqtisodiyoti, ham madaniy meros uchun ancha foydali hisoblanadi.

Arxeologik turizm manbalari qimmatli va noyobdir. Chunki ularni qadim zamonlardagi o'sha davr odamlar tomonidan yaratilgan va o'sha davr muhitini

⁸³ Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – Б.31.

⁸⁴ Qulboyev N.S.Arxeologik turizm va uning xususiyatlari. ochiq osmon ostidagi muzeylar tashkil qilish // International scientific journal. VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2. – P.284.

saqlab qolgan. Vaqt o'tishi bilan bu obyektlar ko'proq qiymatga ega bo'lgan va bu davom etaveradi. Bu borada eng muhim omil arxeologik yodgorliklarga zarar yetkazmaslik, sababi har qanday jarohatni qayta tiklab bo'lmaydi. Shuning uchun turizm manbalaridan faqat ularni boshqa ko'rinishda taqdim etish orqali foydalanish kerak. Bunday xususiyatlarga kelsak, biz arxeologik manbalarni turizm mahsulotiga aylantirishga harakat qilganimizda, muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Mamlakatimiz o'zining qadimiy tarixi bilan butun jahon e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda, YuNESKO Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Xiva, Buxoro, Shahrisabz, qadimdan to hozirgacha Markaziy Osiyoda muhim ahamiyat kasb etgan Toshkent va boshqa ko'plab shaharlar sayyohlar e'tiborini tortib kelmoqda⁸⁵. Turistlar uchun bu shaharlarda ko'plab qulayliklar yaratilgan bo'lib, sayohat vaqtida bevosita o'zini qadimgi davrga tushgandek his qilishadi.

Qashqadaryo vohasining arxeologik park bo'lishga munosib obyektlaridan biri Yerqo'rg'onidir. Yerqo'rg'on atrofi qal'a devori bilan o'rab olingan (ushbu qal'a devorlarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan qisman o'rganilgan. Dastlabki bosqichda Yerqo'rg'onning 500 metr hududi o'rganiladi va devorlarning shakli, tuzilishi bo'yicha tushuncha hosil qilingach, qayta tiklab turslar uchun xizmat ko'rsatadigan manzilgoh satoriga kiritilishi ilmiy asoslanar edi. Shundan so'ng bu maskan xorijlik va mahalliy sayyohlar doimiy keladigan turistik hududga aylantirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Manbalarga ko'ra, Yerqo'rg'on tarixiy arxeologik majmuasi hozirda eski shahar xarobalaridan iborat bo'lgan turli kattalikdagi balandliklar bilan o'ralgan. Uning atrofida butunlay yo'qolib ketgan, o'zaro zich joylashgan shahar oldi imoratlar bo'lgan va ilk mingyillikning birinchi yarmida hududi g'arbga tomon Qashqadaryo daryosi sohillarigacha cho'zilgan⁸⁶.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida shahar kengayib boradi. U 35 gektarlik maydonni egallaydi. Taxminan miloddan avvalgi VI asrda

⁸⁵ Qulboyev N.S. Arxeologik turizm... – P.285.

⁸⁶ Odilova F., Eshatov I., Jurayeva E. Qadimgi qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili // Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar. – 2023. – №2. – B.59-60.

qurilgan yangi mudofaa devorining balandligi 8 metr, poydevori 3 metr kenglikda bo'lgan. U shaharni sak chavandozlaridan himoya qilgan. Vaqt o'tishi bilan u bir necha marta ta'mirlangan va kengaytirilgan, IV asrning o'rtalariga kelib, uning qalinligi 20 metrga yetgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar rivojlanib borgan, buni arxeologik topilmalar tasdiklaydi. Jumladan, sopol buyumlarning shakli o'zgara boshlagan. Bular nafis jomlar, ovqat solinadigan idishlar, laganlardir, ayni paytda bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kela boshlaydi. Bu davrdagi noyob terrakota rasmlar va bezaklar ellincha usulda yasalgan. Qazilmalar mobaynida topilgan momaqaldiraq xudosi Zevs tasviri tushirilgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga mansub etruskcha gemmaintaliya ham shu davrga oiddir. Soqolli yalang'och mavjudot yarim burilgan holda chap qo'lida Zevsning hamrohi - burgut qo'ngan asoni ushlab turgan tarzda tasvirlangan⁸⁷.

Yerqo'rg'on ham mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi, ma'lum masofada kuzatish minoralari mavjud edi. Bu davrda shaharning 2 ta darvozasi bo'lgan: birinchisi, shaharning shimoliy-sharqida-bu yerdan Zarafshon vodiysiga chiqish mumkin bo'lgan; ikkinchisi, shaharning janub-sharqida-bu darvoza Sharqiy Kashkadaryo olib boradigan yulda joylashgan. Arxeologik tadqiqotlarning ma'lumot berishicha, Yerqo'rg'on aholisi asosan ziroatchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shuningdek yuqorida tilgan olingan shaharlardan tashkari Marv, Balx, Kuzalikir, Kiziltepo kabi shaharlar bu davrda savdo va hunarmandchilikning muhim markazlari bo'lgan. Bu davrda ularning hududlarida dastlabki ahamoniylar tangalari - dariklar paydo bo'ladi. Baqtriyada aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan⁸⁸.

Umuman olganda, O'zbekiston janubiy vohalaridagi arxeologik yodgorliklarni arxeologik parklarga aylantirish, mavjud potensialdan oqilona foydalanib turizm obyektiga aylantirish o'z samarasini beradi.

⁸⁷ Oltiyev Q. Qashqadaryo vohasi ilk temir davri yodgorliklari // Journal of new century innovations. – 2022 december. Volume–18_Issue 4. – B.66.

⁸⁸ Oromov Q. Qashqadaryo vohasi turli davrlarda tarixchilar talqinida // Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2022. – B.59.

XULOSA

O'zbekiston hududida uning boy tarixiy, milliy va madaniy o'tmishini, nodir arxeologik topilmalar va paleontologik qoldiqlarini o'zida mujassam etgan tarixiy madaniy yodgorliklarni hamda noyob o'simliklari va hayvonot dunyosini o'zida mujassam etgan jozibador tabiiy maskanlarini qamrab olgan 7000 dan ortiq turistik manzillar mavjud. Ulardan 140 ga yaqini YuNESKO ro'yxatiga kiritilib, alohida muhofazaga olingan. Resurslar ko'lami, ya'ni qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlar, tarixiy-madaniy meros, shuningdek, yer osti va usti gidrologik suv resurslari, shifobaxsh buloqlar, go'zal manzaralar, yam-yashil o'rmonzorlar hamda ming yillik daraxtlar, mashhur g'orlar, sharsharalar, noyob tabiat yodgorliklari, ajoyib ko'llar, qo'riqxonalarda namoyon bo'luvchi tabiiy maskanlar mamlakatimizda turizmning ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlikka oid va boshqa bir qator turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Janubiy O'zbekiston moddiy madaniyati lokal xususiyatlari bilan boshqa vohalardan ajralib turadi. Ushbu madaniyatlarning moddiy manbalari ilmiy adabiyotlarda to'liq yoritilgandan so'ng chet ellik arxeologlar bu madaniyatlarga nisbatan sivilizatsiya iborasini qo'llay boshlashdi. Amerikalik professor K.Lamberg-Karlovskiy birinchi bo'lib "Oks sivilizatsiyasi", italiyalik professor M.Tosi va o'zbek arxeologi T.Sh.Shirinov o'z asarlarida "Turon sivilizatsiyasi" iboralarini ishlatdi. Undan tashqari adabiyotlarda "O'rta Osiyo sivilizatsiyasi", "Janubiy O'zbekiston sivilizatsiyasi", "Baqtriya sivilizatsiyasi" kabi atamalar ham qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlarida miloddan avvalgi 2-mingyillikning birinchi yarmi davomida qadimgi sharq sivilizatsiyasiga xos tarixiy sharoitda yuksak rivojlangan qadimgi ilk shahar madaniyati tarkib topdi. Ushbu qadimgi shahar madaniyatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslari Surxondaryo viloyatining Sherobod vohasida qad ko'targan noyob yodgorliklar - Sopollitepa va Jarqo'tonda qo'yildi.

O'zbekistonning janubiy vohalari arxeologiya obyektlari eng ko'p o'rganilgan hudud ekanligi uzoq yillar davomida amalga oshirilgan ilmiy ekspedisiyalar, arxeologik, san'atshunoslik, arxitektura, topografik, toponomik kompleks tadqiqotlar, ilmiy nashrlar salmog'i, qadimshunos olimlarning O'zbekistondagi tadqiqotlari geografiyasi orqali ma'lum bo'ldi.

Yuz yildan ortiq vaqt mobaynida O'zbekistonning janubiy hududlarida davom etgan mahalliy va xorijiy arxeologik ekspedisiyalarning tadqiqot davri, ochgan obyektlarini o'rganish davrida antik davr va undan keyingi davrga bo'lib tasniflash imkonini berdi.

Termiz arxeologiya muzeyi O'zbekistondagi muzeylar orasida tarixiy artefaktlar va ashyolarning sonining ko'pligi, yuqori ilmiy qiymati, asl eksponatlarning ko'pligi, antik davrga oid arxeologik buyumlarning boyligi bilan ajralib turishi ilmiy dalillandi. Sovet davri va mustaqillik yillarida hududda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, arxeologik qazishmalar, dala ishlari natijasida qo'lga kiritilgan tarixiy ashyolarning katta qismi Termiz arxeologiya muzeyida jamlandi. Boy tarixga ega artefaktlarning muzeda to'planishi uning ilmiy qadri va nufuzining oshishiga xizmat qilgan.

Arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq zamonaviy turizmni tashkil etishda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari islomdan oldingi davr dinlari bilan bog'liq obyektlarni o'zida yaxshi saqlagani, ilk yozuv, ilk rassomchilik va ilk insoniyat izlari topilgan hududlardan biri bo'lgani ichun munosib hudud ekanligi asoslangan.

Surxondaryo va Qashqadaryoda arxeologik parklar tashkil etish nafaqat hududda ichi va tashqi turizm rivojiga, balki aholining qadim va boy tarixdan xabardorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBAA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari va me'yoriy hujjatlar

1.1. Мирзиёев Ш.М. Оққўнгил, орийтли ва меҳнаткаш инсонлар юрти (Сурхондарё вилояти) // Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 273-302.

1.2. Мирзиёев Ш.М. Ҳар қандай синовларни енгишга қодир халқ (Қашқадарё вилояти) // Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 303-336

1.3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги “Туризм ва спорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори. Электрон манба: <https://www.lex.uz/docs/5356603>.

II. Ilmiy adabiyotlar

2.1. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии (V-начало XIII в.). – Ташкент: Фан, 1981. 120 с.

2.2. Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. 24 б.

2.3. Асқаров А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. 172 с.

2.4. Асқаров А., Абдуллаева Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент: Фан, 1983. 120 с.

2.5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва., 1963. 763 с.

2.6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л: Наука, 1973. 190 с.

2.7. Egamberdiyeva N. Arxeologiya. – Toshkent: Lesson-press, 2023. 190 b.

2.8. Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент: Фан, 1984. 150 б.

2.9. Маҳкамова Н.А. Қашқадарё воҳаси тош даври ёдгорликлари ўрганилиш тарихидан // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в

исследованиях молодых ученых. ЎзР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.21.

2.10.Муродова Д.Х. Галина Анатольевна Пугаченкова – архитектор, археолог, искусствовед. – Фергана: Наврўз, 2019. 151 с.

2.11.Норқобилов Т.Х. Жанубий Ўзбекистон бронза даври археологияси йўналишларининг шаклланиши ва ривожланиши (XX асрнинг 60-80 - йиллари) // Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари / Кафедра археологии Средней Азии:поиск и открытия поколений. – Тошкент, 2020. – Б.213.

2.12.Окладников А.П. Исследование палеолитической пещеры Тешик-Таш (предварительное сообщение) // Труды Узб. филиала АН СССР. Вып.1. 1940. – С. 67-69.

2.13.Odilova F., Eshatov I., Jurayeva E. Qadimgi Qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili // Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar. – 2023. – №2. – В.58.

2.14.Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) //КСИИМК. Вып.28. 1940в

2.15.Oltiyev Q. Qashqadaryo vohasi ilk temir davri yodgorliklari // Journal of new century innovations. – 2022 december. Volume–18_Issue 4. – В.66.

2.16.Oromov Q. Qashqadaryo vohasi turli davrlarda tarixchilar talqinida // Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2022. – В.59.

2.17.Ражабав А.Ю., Маҳкамова Н.А. Жанубий Ўзбекистоннинг қадимги тош даври археология ёдгорликларини ўрганилиш тарихи // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎзР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарканд, 2013. – Б.16.

2.18.Раҳимов К.А. Сополли маданиятининг товалари ва манқалдонлари

// Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 38-нашри. – Самарқанд. 2012. 125-130 бетлар.

2.19.Раҳимов К.А., Холманов А.У. Сополли маданиятининг камин-ўчоқлари бронза даври жамоаларининг ижтимоий ҳаёти ҳақида муҳим манба // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида / Проблемные вопросы истории Узбекистана в исследованиях молодых ученых. ЎзР ФА Археология институтида 2013 йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2013. – Б.23.

2.20.Сагдуллаев А., Низаев П. Разведки в Кашкадарьинской области. – АО 1975 года. – Москва., 1976. С.354.

2.21.Сурхондарёда вилоятнинг туризм салоҳиятини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури қабул қилинмоқда // daryo.uz. 2018 йил 7 март.

2.22.Тоғаев Ж.Э. Кафедра битирувчиларининг Жанубий Ўзбекистон маданияти ва тарихини ўрганишга қўшган ҳиссаси // Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари / Кафедра археологии Средней Азии:поиск и открытия поколений. – Тошкент, 2020. – Б.222.

2.23.Termiz arxeologiya muzeyi Amerika jurnalida yoritildi // yuz.uz. 2020 yil 14 avgust.

2.24.Усманий С. Македонский тангаларидан Бухоро амири қоғоз пулларигача – Ўзбекистондаги ягона археология музейидан фоторепортаж // kun.uz. 2023 йил 3 апрел.

2.25.Франциялик археолог Термиз археология музейига ташриф буюрди // daryo.uz. 2018 йил 14 сентябр (Мурожаат этилган сана: 2024 йил 10 март)

2.26.Хосиятов Х.О. Жанубий Ўзбекистон музейларида халқаро ташкилотлар ва хорижий мамлакатлар билан ўзаро алоқалар // История и культура Центральной Азии. – 2023. – № 1. – С.509-512.

2.27.Хўжаёров А.О. Насаф шахрининг Марказий Осиё цивилизациясидаги ўрни // Марказий осие цивилизация тизимида Ўзбекистон

тарихи ва маданияти. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши, 2022. – б.94.

2.28.Худойбердиев Р. Лувр музейида Сурхондарё тарихи юз очди // Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 октябр.

2.29.Қурбонов А., Хўжаназаров А. Туризм соҳасида янги босқич // “Бойсун-баҳори” очик фольклор фестивалини “жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – Б.51.

2.30.Qulboyev N.S.Arxeologik turizm va uning xususiyatlari. ochiq osmon ostidagi muzeylar tashkil qilish // International scientific journal. VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2. – P.284.

2.31.Yarkulov A.A. Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlar. – 2023. – № 1. – В.316.

2.32.Ўзбекистоннинг энг қизиқарли музейлари: хорижий сайёҳлар орасида ТОП-5 // sputniknews.uz. 2023 йил 17 май.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar.

3.1. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2009. 350 б.

3.2. Джураева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни: тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. 249 б.

IV. Internet ma'lumotlari

4.1. www.lex.uz

4.2. www.fati.uz

4.3. www.UzA.uz

4.4. www.society.uz

4.5. www.pugachenkova.net

ILOVALAR







Рис. 1. Средневековые города долины Кашкадарьи:
1 — Касби (Кесба), 2 — Куя Фазли (Безд), 3 — Шуллиуктепе (Нессф), 4 — Улюктепе (Субах), 5 — Ходжабузруктепе (Искифаги), 6 — Камайтепе, 7 — Алтынтепе, 8 — Гышатепе, 9 — Чимкургантепе, 10 — Қишмиштепе, 11 — Чандарактепе, 12 — Кеш, 13 — Сарыктепе.



Shimoliy Baqtriya bronza davri yodgorliklarining xarita-sxemasi



Jarqo'tondagi qabriston topilmalari.



Jarqo'tondagi qabristonidan topilgan taqinchoqlar



Xolchayon haykallari. Pugachenkova rekonstruktsiyasi.



1-расм. Маъжозий шакли муҳр-тамғалар



2-расм. Цилиндрсимон муҳр-тамғалар



3-расм. Пиллапоя гардишли, хочсимон муҳр-тамғалар



4-расм. Текис юзали, тўғритўртбурчак шакли муҳр-тамғалар



5-расм. Тўғри бурчакли, текис, икки юзали муҳр-тамғалар




6-расм. Конуссимон муҳр-тамғалар



7-расм. Квадрат шакли муҳр-тамғалар



8-расм. Юлдузсимон мухр-тамгалар



9-расм. Тўнбаргсимон мухр-тамгалар




10-расм. Доира шакли икки юзали мухр-тамгалар

Г.А.Пугаченкованинг илмий асарлари ва монографиялари



Termiz arxeologiya muzeyi




Termiz arxeologiya muzeyi ekspontrlari



Termiz arxeologiya muzeyi ekspontrlari



Termiz arxeologiya muzeyi ekspontrlari



Piktografik yozuv haflari



1



4



2



5



3



6